

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 115 (1176), 2024-yil 12-iyun, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



OZARBAYJON BILAN MADANIY ALMASHINUV YANADA KENGAYISHI QO‘LLAB-QUVVATLANDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 11-iyun kuni Ozarbayjon madaniyati kunlarini o‘tkazish doirasida mamlakatimizda bo‘lib turgan Ozarbayjon Respublikasi madaniyat vaziri Adil Karimlini qabul qildi.



Uchrashuv avvalida Adil Karimli davlatimiz rahbariga Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyevning salomlari va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O‘zbekiston bilan Ozarbayjon o‘rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarini, shu jumladan, ustuvor hisoblangan gumanitar sohadagi aloqalarni yanada kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Mamlakatimiz yetakchisi so‘nggi yillarda madaniy almashinuv faollashganini katta mamnuniyat bilan qayd etdi.

Joriy yil boshidan buyon Boku shahrida O‘zbekiston ilm-fani va madaniyati kunlari, ko‘rgazma va “Lazgi” milliy baleti premyerasi muvaffaqiyatli o‘tkazildi.

Ozarbayjon madaniyati kunlari doirasida shoir va mutafakkir Muhammad Fuzuliy kitobining taqdimoti bo‘lib o‘tdi. Shuningdek, ko‘rgazma, sahna asarlari namoyishlari va boshqa tadbirlar o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

“Yo‘l xaritasi” asosida faol muloqotni va tadbirlarga boy madaniy dastumi davom ettirish, UNESCO, TURKSOY va ISESCO kabi xalqaro tashkilotlar doirasida qo‘shma tashabbus va loyihalarni ilgari surish muhimligi ta‘kidlandi.

O‘za

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI AQSH DELEGATSIYASINI QABUL QILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 11-iyun kuni Amerika Qo‘shma Shtatlarining Savdo vakili Ketrin Tayni qabul qildi.

Amerika idorasi rahbari O‘zbekiston yetakchisiga AQSH Prezidenti Jo Baydenning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Uchrashuv davomida ikki tomonlama strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Ishbilarmonlik aloqalari faollashgani, o‘zaro tovar ayirboshlash va investitsiyalar ko‘rsatkichlari barqaror o‘sayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

AQSHning “Air Products”, “Coca-Cola”, “Citibank”, “Visa” va boshqa

ko‘plab yetakchi korxonalari va banklari bilan kooperatsiya aloqalari rivojlanmoqda.

O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lishi, GSP tizimini qayta tiklash, “C5+1” formati hamda Savdo va investitsiyalar bo‘yicha hadli bitim doirasida amaliy hamkorlikni chuqurlashtirish bilan bog‘liq masalalar ko‘rib chiqildi.

Sanoat kooperatsiyasi uchun yangi sohalar aniqlash va tegishli loyihalarni ilgari surish bo‘yicha qo‘shma platformani ishga tushirish muhim ekan ta‘kidlandi.

O‘za

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining QARORI

MUBORAK QURBON HAYITINI NISHONLASH TO‘G‘RISIDA

Muborak Qurbon hayitining ma‘naviy hayotimizda mehr-olib, bag‘rikenglik, muruvvat, do‘stlik va hamjihatlik kabi ezgu tamoyillarni mustahkamlash borasidagi o‘rni va ahamiyati beqiyosdir.

Ushbu qutlug‘ ayyomni munosib kutib olish va yuqori saviyada o‘tkazish, muqaddas islom dinining insonparvarlik g‘oyalari hamda milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash va ulug‘lash maqsadida:

1. 2024-yilda muborak Qurbon hayitining birinchi kuni 16-iyun — yakshanba kuniga to‘g‘ri kelishi to‘g‘risida O‘zbekiston musulmonlari idorasining axboroti ma‘lumot uchun qabul qilinib, yurtimizda 16-iyun kuni Qurbon hayiti bayrami sifatida keng nishonlansin.

2. Quyidagilar:
a) Mehnat kodeksining 208-moddasiga muvofiq:

ishlanmaydigan bayram kuni hisoblanuvchi Qurbon hayitining birinchi kuni dam olish kuniga to‘g‘ri kelishi munosabati bilan ushbu dam olish kuni 17-iyun — dushanba kuniga ko‘chirilishi;

bunda ishlab chiqarish-texnik va tashkiliy sharoitlar (mavjud uzluksiz ishlab chiqarish, aholiga har kuni xizmat ko‘rsatish, navbatchilik asosida ishlab chiqarish) tufayli ishlanmaydigan bayram kunlari to‘xtatib qo‘yish mumkin bo‘lmagan ishlarni bajarishda dam olish kunlari ko‘chirilmagligi;

b) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 22-dekabrda “2024-yilda rasmiy sanalarni nishonlash

davrida qo‘shimcha ishlanmaydigan kunlarni belgilash va dam olish kunlarini ko‘chirish to‘g‘risida”gi PF-213-son Farmoni bilan 18-iyun — seshanba kuni barcha xodimlar uchun qo‘shimcha dam olish kuni etib belgilanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Din ishlari bo‘yicha qo‘mita, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi va boshqa hamkor tashkilotlar bilan birgalikda muborak Qurbon hayitini xalqimizning milliy an‘ana va urf-odatlariga uyg‘un holda o‘tkazish uchun tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Turizm qo‘mitasi Transport vazirligi bilan birgalikda yurtdoshlarimiz uchun muborak Qurbon hayiti kunlarida mo‘tabar ziyoratgohlar va tarixiy qadamlarga ziyoratlarini tashkil etish maqsadida qulay sharoit va imkoniyatlar yaratilsin.

5. O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi va boshqa ommaviy axborot vositalariga Qurbon hayitini nishonlash bilan bog‘liq tadbirlarni keng yoritish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi M.M.Kamilov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

SH. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2024-yil 11-iyun

O‘ZBEKISTONDA OZARBAYJON MADANIYATI KUNLARI ISHTIROKCHILARIGA

Qadrlı mehmonlar!
Aziz vatandoshlar!
Xonimlar va janoblilar!

Avvalo, bugungi ulkan voqea — O‘zbekistonda Ozarbayjon madaniyati kunlarining tantanali ochilishi bilan barchangizni chin qalbindan samimiy muborakbod etaman.

Sizlarga yaxshi ma‘lumki, keyingi yillarda O‘zbekiston va Ozarbayjon davlatlari o‘rtasida do‘stlik va hamkorlik aloqalari jadal rivojlanib, mutlaqo yangi bosqichga ko‘tarilmoqda.

Buni barcha sohalar qatori madaniy-gumanitar yo‘nalishdagi aloqalarimiz ham izchil rivojlanib borayotgani misolida barchamiz yaqqol ko‘rib turibmiz.

Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti, aziz qardoshim Ilhom Geydarovich Aliyev bilan kelishuvlarimiz asosida o‘tgan yili Ozarbayjonda O‘zbekiston madaniyati kunlari, shu yil yanvar oyida esa O‘zbekiston fani va madaniyati kunlari yuksak saviyada o‘tkazildi.

Qadimiy Ozarbayjon zaminida o‘zbekistonlik ilmfan va madaniyat namoyandalari katta hurmat-e‘tibor bilan kutib olingani, bu diyorda bo‘lib o‘tgan qizg‘in va samimiy uchrashuv hamda muloqotlar, hech shubhasiz, xalqimiz o‘rtasidagi azaliy qardoshlik munosabatlarini mustahkamlashga munosib hissa bo‘lib qo‘shildi.

Biz O‘zbekistonda o‘tkazilayotgan Xalqaro maqom san‘ati anjumani, Baxshichilik va “Lazgi” festivallari hamda boshqa yirik madaniy tadbirlarda

Ozarbayjon ijodkorlari muntazam ishtirok etib kelayotganini yuksak qadrlaymiz.

Ozarbayjonda milliy mug‘om san‘ati bo‘yicha bo‘lib o‘tadigan an‘anaviy festivalga o‘zbek san‘atkorlari doimiy taklif etib borilayotgani alohida diqqatga sazovordir.

Mamlakatimizda katta shodur xurramlik bilan boshlanayotgan Ozarbayjon madaniyati kunlari qardosh ozar zaminida bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston madaniyati kunlarining uzviy davomidir.

Ishonchim komil, bizning san‘atsevar xalqimiz orziqib kutgan ushbu madaniyat kunlari qardoshlarimizning qadimiy va boy madaniyati, san‘ati, adabiyoti, milliy an‘ana va qadriyatlari bilan yanada yaqinroq tanishish uchun qulay imkoniyatlar beradigan go‘zal bir anjuman bo‘ladi.

Siz aziz, Ozarbayjon madaniyati kunlarining barcha ishtirokchilarini yana bir bor chin dildan qutlab, barchangizga sihat-salomatlik, yuksak ijodiy parvozlar tilayman.

Sizlar ushbu madaniyat va san‘at bayrami doirasida Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ulkan o‘zgarishlar bilan xalqimizning qadimiy tarixi va boy madaniyati bilan yanada yaqinroq tanishasizlar, deb ishonaman.

Qardoshlarimiz diyori — O‘zbekiston zaminiga xush kelibsiz!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

KOREYA RESPUBLIKASI PREZIDENTI DAVLAT TASHRIFI BILAN O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BO‘LADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taqdimiga binoan Koreya Respublikasi Prezidenti Yun Sok Yol 13-15-iyun kunlari davlat tashrifi bilan mamlakatimizda bo‘ladi.

Tashrif dasturiga muvofiq, Toshkent shahrida bo‘lib o‘tadigan oliy darajadagi muzokaralarda O‘zbekiston — Koreya do‘stlik va alohida strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqiladi.

Savdo, innovatsiyalar va texnologiyalar almashinuvi, energetika, elektronika va elektrotexnika, kimyo sanoati, qishloq xo‘jaligi, infratuzilmaviy rivojlanish va boshqa ustuvor yo‘nalishlarda amaliy hamkorlikni kengaytirish masalalari e‘tibor markazida bo‘ladi. Ta‘lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va turizm sohalaridagi qo‘shma dasturlar muhokama qilinadi.

Shuningdek, mintaqaviy, shu jumladan, “Markaziy Osiyo — Koreya Respublikasi” formatidagi hamkorlik yuzasidan ham fikr almashish rejalashtirilgan.

Sammit yakunlari bo‘yicha bir qator hukumatlararo va idoralararo hujjatlar imzolaniishi ko‘zda tutilgan.

Tashrifning ishlarmonlik dasturi doirasida O‘zbekiston va Janubiy Koreya Prezidentlari qo‘shma biznes-forumida ishtirok etadilar.

Prezident Yun Sok Yol mamlakatimizning boy madaniy-tarixiy merosi bilan tanishish maqsadida Samarqand shahriga tashrif buyuradi.

O‘za

O‘zbekiston — Koreya Respublikasi:

KO‘P ASRLIK DO‘STLIK ALQALARIGA SODIQLIK VA ALOHIDA STRATEGIK SHERIKLIK YO‘LIDA

Prezident Shavkat Mirziyoyevning taqdimiga binoan Koreya Respublikasi Prezidenti Yun Sok Yol 13-15-iyun kunlari davlat tashrifi bilan O‘zbekistonda bo‘ladi.

1992-yil 29-yanvarda o‘rnatilgan O‘zbekiston — Koreya Respublikasi diplomatik munosabatlari ikki davlat o‘rtasida turli sohalaridagi muvaffaqiyatli hamkorlik namunasini ko‘rsatmoqda. O‘tgan yildan ortiq davom etib kelayotgan o‘zaro yaqin aloqalar bir necha asosiy bosqichlardan o‘tib rivojlandi va

mustahkamlandi. 2006-yilda ikki davlat o‘rtasida Strategik hamkorlik to‘g‘risidagi qo‘shma deklaratsiya imzolangan bo‘lsa, 2019-yilda munosabatlar alohida strategik sheriklik darajasiga ko‘tarildi.

Davomi 3-betda

Akmal SAIDOV:

“INSON HUQUQLARI BO‘YICHA SAMARQAND FORUMI DUNYO MIQYOSIDA NOYOB VA SAMARALI MULOQOT MAYDONIGA AYLANDI”

Joriy yil 13-14-iyun kunlari mamlakatimizda Inson huquqlari bo‘yicha IV Samarqand forumi bo‘lib o‘tadi. Bu galgi an‘anaviy xalqaro anjuman “Ekologik muammolar: o‘zgaruvchan dunyoda inson huquqlari kelajagi, barqaror yechimlar topish” mavzusiga bag‘ishlangan.



Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi ushbu forumning asosiy milliy tashkilotchilaridan biridir. Milliy markaz direktori, akademik Akmal SAIDOV bilan an‘anaviy xalqaro forumning mohiyati va ahamiyati haqida suhbatlashdik.

— Joriy yil Inson huquqlari bo‘yicha Samarqand forumiga asos solinganiga 6-yil bo‘ldi, — dedi A.Saidov. —

An‘anaviy tarzda har ikki yilda o‘tkazib kelinayotgan ushbu xalqaro anjuman qisqa vaqt ichida inson huquqlarining turli sohalariga taalluqli dolzarb masalalarni muhokama etish va natijali yechimlar topish borasida dunyo miqyosida kam uchraydigan noyob va samarador, qulay va o‘ziga xos muloqot maydoniga aylandi.

Davomi 3-betda



O'zbekiston — Koreya Respublikasi:

KO'P ASRLIK DO'STLIK ALOQALARIGA SODIQLIK VA ALOHIDA STRATEGIK SHERIKLIK YO'LIDA

Boshlanishi 1-betda

Bu bosqichlar chuqur tarixiy aloqalarni aks ettiradi va o'zaro almashinuvlarning yuqori dinamikasi bilan ajralib turadi. Oliy darajadagi tashriflarning muntazam almashinuvi O'zbekiston — Koreya Respublikasi munosabatlari har ikki tomon uchun muhimligidan dalolat beradi. Davlat rahbarlari ikki tomonlama hamkorlik va global masalalarni muhokama qilish uchun uchrashadilar. Mazkur uchrashuvlar turli sohalarda o'zaro anglashuvni chuqurlashtirish va hamkorlikni kengaytirishga xizmat qilmoqda hamda muhim shartnoma va memorandumlar imzolashiga zamin yaratmoqda.

Parlamentlararo hamkorlik O'zbekiston — Koreya Respublikasi munosabatlarida muhim o'rin tutadi. Ikki mamlakat parlamentariylarining muntazam uchrashuv va delegatsiyalar almashinuvi hamkorlikning qonunchilik bazasini rivojlantirish va xalqlarimiz o'rtasidagi do'stona aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bu jarayonda Parlamentlararo do'stlik guruhlari o'zaro tajriba almashishda faol ishtirok etayotir.

O'zbekiston va Koreya Respublikasi turli xalqaro tashkilotlar va formatlar doirasida ham faol hamkorlik qilib kelmoqda. Bunday ko'p tomonlama muzokaralar global va mintaqaviy masalalarni hal etishda sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirish, xalqaro maydonda o'z pozitsiyalarini mustahkamlash, tinchlik va barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan tashabbuslarni birgalikda ilgari surish imkonini beryapti.

Rasmiy Seul xalqaro maydondagi hamkorlik doirasida O'zbekiston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan "Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta'minlash bo'yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash", "Ma'rifati va diniy bag'rikenglik" (2018), "Markaziy Osiyoda barqaror turizm va barqaror rivojlanish" (2019), "Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni jadallashtirishda parlamentlarning rolini kuchaytirish to'g'risida" (2022) rezolyutsiyalarni qo'llab-quvvatladi.

Shuningdek, 2021-2023-yillarga mo'ljallangan BMT Inson huquqlari kengashi a'zozligiga O'zbekiston nomzodini, shuningdek, 2023-yilda Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) Bosh assambleyasining 25-sessiyasi o'tkaziladigan joy sifatida Samarqand shahri nomzodini yoqlab ovoz berdi.

O'zbekiston va Janubiy Koreya o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik sezilarli rivojlanishni ko'rsatmoqda. 2023-yilda ikki davlat o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi qariyb



2,3 milliard dollarni tashkil etgani o'zaro manfaatdorlik darajasi yuqori ekanidan dalolat beradi. Jumladan, Koreya Respublikasi kompaniyalari O'zbekiston iqtisodiyotiga investitsiya kiritishda peshqadamlardan biri. Ular energetika, qurilish, to'qimachilik va boshqa sohalarda turli loyihalarni amalga oshirishda muvaffaqiyatli ish olib bormoqda. Bugungi kunda yurtimizda ushbu mamlakat kapitali ishtirokida 700 dan ortiq korxonalar faoliyat yuritmoqda.

2024-yilda Seul shahrida O'zbekiston Savdo uyining ochilishi ikki tomonlama iqtisodiy munosabatlar tarixidagi muhim qadam bo'ldi. Bugungi kunda mazkur savdo uyi O'zbekiston tovar va xizmatlarini Koreya Respublikasi bozorida ilgari surish, ikki davlat tadbirkorlari o'rtasida ishlabarmonlik aloqalarini o'rnatish uchun muhim maydonga aylangan. Savdo uyi, shuningdek, O'zbekiston mahsulotlarining Koreya Respublikasiga eksportini rivojlantirishda muhim o'rin tutib,

iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Koreya — O'zbekiston ishlabarmonlar assotsiatsiyasi ham iqtisodiy hamkorlikning muhim vositasi sifatida tadbirkorlar o'rtasida savdo-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan biznes-forumlar, ko'rgazmalar, seminar va boshqa xalqaro tadbirlarni tashkil etayotir. Assotsiatsiya ikki mamlakat ishlabarmonlariga yangi hamkorlar topish, tajriba va bozor tendensiyalari bo'yicha ma'lumot almashishda ham yaqindan ko'maklashyapti. Bu esa o'zaro ishonchni mustahkamlash va ishlabarmonlik aloqalarini kengaytirishda muhim o'rin tutadi.

Mamlakatimizda O'zbek — Koreya o'quv-amaliy to'qimachilik texnopark, O'zbekiston — Koreya xabardor metallar va qattiq qotishmalar ilmiy-texnologik, Qishloq xo'jaligi mashinasozligi konstruktorlik-texnologik, O'zbekiston — Koreya Elektron hukumat va raqamli iqtisodiyot hamkorlik markazlari tashkil

etilgan. Shuningdek, Koreya tomoni Milliy elektron tijorat platformasini ishga tushirishda ko'mak berdi.

O'zbekiston Respublikasi bilan Koreya Respublikasi o'rtasidagi investitsiyaviy hamkorlik keng ko'lam kasb etgan. Ushbu mamlakatning O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb etgan to'g'ridan to'g'ri investitsiyalari hajmi 7,5 milliard dollardan oshdi.

Janubiy Koreya, shuningdek, O'zbekistonga moliyaviy va texnik yordam ko'rsatyapti. Jumladan, Koreya Respublikasi "Eksimbanki" bilan hamkorlik doirasida 1999-yildan buyon umumiy qiymati 2,6 milliard dollarlik 17 ta qo'shma loyiha amalga oshirildi.

2020-yil dekabr oyida Koreya Respublikasi hukumati BMTning Orolbo'yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo'yicha ko'p sherklik Trast fondiga 1 million AQSH dollari miqdorida moliyaviy yordam berish to'g'risidagi kelishuvni imzoladi.

O'zbekiston va Janubiy Koreya o'rtasidagi madaniy-gumanitar hamkorlik chuqur ildizga ega. Ikki xalqning madaniyati, mentalitetining o'xshashligi mazkur sohalarda o'zaro aloqalarni rivojlantirishda muhim omil bo'layotir.

O'zbekiston — Koreya Respublikasi munosabatlarning muhim yo'nalishi ta'lim va fan sohasidagi aloqalardir. Mamlakatimizdagi oliy ta'lim muassasalari Janubiy Koreyaning 45 dan ortiq oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yg'an. O'zbekistonda Janubiy Koreyaning 4 ta oliy o'quv yurti filiali ochilgan. Toshkent shahrida Inxa, Puchon, Yodju, shuningdek, Farg'onadagi Koreya xalqaro universiteti filiallari tashkil etilgani bu boradagi aloqalarni yangi pog'onaga ko'tardi. Bugungi kunda ularda turli mutaxassisliklar bo'yicha talabalar tahsil oluyapti. Bundan tashqari, o'zbekistonlik talabalar Janubiy Koreyaning yetakchi

universitetlarida ta'lim olish imkoniyatiga ega. Axborot texnologiyalari, tibbiyot va injiniring kabi yo'nalishlarda olib borilayotgan ilmiy almashinuvlar va qo'shma tadqiqotlar har ikki mamlakat ilmiy salohiyatini yuksaltirishda muhim omil bo'lyapti. 2023-yil mart oyida Toshkentda ikki davlat yetakchi oliy ta'lim muassasalari rektorlarining forumi bo'lib o'tdi.

Respublikamizning 9 ta oliy o'quv yurti, 24 ta maktab va litseylarida koreys tili o'qitilmoqda. Janubiy Koreyaning Pusan va Tegu shaharlaridagi xorijiy tillar universitetlarida o'zbek tili bo'limlari tashkil etilgan. Shuningdek, Koreya Respublikasi oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan o'zbekistonlik talabalar soni 11 mingdan oshadi.

O'zbekiston va Koreya Respublikasi o'rtasidagi ilmiy hamkorlik biotexnologiya, nanotexnologiya, tibbiyot fanlari kabi yo'nalishlarda qo'shma tadqiqotlar olib borish orqali faol rivojlanmoqda. Ikki mamlakatning ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy o'quv yurtlari qo'shma loyihalar hamda olimlar almashinuvinu amalga oshirayotgani ilmiy salohiyat va innovatsiyalarni rivojlantirishga xizmat qilayapti. Bunday tashabbuslar ilm-fan taraqqiyotini, ilg'or texnologiyalarni iqtisodiyotga tatbiq etishni jadallashtirish imkonini berayotir.

Ikki mamlakat o'rtasida faol madaniy almashinuvlar yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu xalqlarimiz o'rtasidagi do'stona aloqalar va o'zaro hamjihatlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Milliy an'analar, san'at va madaniyatni namoyish etish maqsadida muntazam ravishda festivallar, ko'rgazmalar, konsertlar va boshqa madaniy tadbirlar o'tkazib kelinmoqda. Mazkur tadbirlar O'zbekiston va Janubiy Koreya aholisiga bir-birini yaqindan bilish, madaniy tajribalarini boyitish va do'stona aloqalarni mustahkamlash imkonini berayotganini ta'kidlash kerak.

2014-yilda Toshkentda ochilgan Seul bog'i, shuningdek, Seul shahri markazida qad rostlagan ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiy haykali o'zbek va koreys xalqlari o'rtasidagi do'stlik ramzidir.

O'zbekistondagi qariyb 180 mingdan ortiq etnik koreys millatiga mansub diaspora vakillari ham xalqlarimiz o'rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlash, o'zaro hamjihatlik va totuvlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Ta'kidlash joizki, O'zbekistondagi koreys diasporasi soni bo'yicha Markaziy Osiyoda eng ko'p, dunyoda esa beshinchi o'rinda turadi. O'zbekistonda koreyslarning tili, madaniyati va an'analarini asrab-avaylash maqsadida mamlakatimizning barcha hududlarida Koreys milliy madaniyat markazlari faoliyat yuritmoqda.

"Dunyo" AA

Agrotarmoq

TOMORQALARDAN TOMAYOTGAN BARAKA

Jomboy tumani Beshbola mahallasi mirishkorlari yetishtirgan kartoshkaning ta'mi o'zgacha. Zarafshon mahallasi dehqonlari limonchilikning hadisini olgan. Ularning tomorqasidan chiqqan limon bugun xorijga eksport qilinmoqda. Dehqonobod mahallasidagilar karam va sarimsoqni yetishtirishda hammani ortda qoldiryapti.

Zulfiya MO'MINOVA, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi



Kattaqishloqlar tomorqasidan chiqqan piyoz navlarining afzalligi shundaki, shirin bo'lgani uchun yulib, yuvib, issiq non bilan yeb ketaverasiz. Tut mahallasi asalarlari Sarchashma mahallasi gulzorlaridan bol yig'ib qaytadi.

Nayman mahallasidan o'tar ekanimiz, dimog'imizga urilgan ifordan entikib ketdik. Bu mahallada malina yetishtiriladi. Jomboyliklarning onaxoni, bir vaqtlar tuman hokimi o'rinbosari bo'lib ishlagan ijodkor Hafiza O'sarova boshchiligidagi malinachilarning ustoz bo'lgan Mastura Qodirovaning tomorqasiga kirdik. Bizga peshvoz chiqqan Masturaxonning kayfiyatidan ishlari zo'rligini bilsa bo'ladi. Malinali tomorqaga yaqinlashgan sari kishida kayfiyat ham iforli bo'lar ekan. Tibbiyotda aromaterapiya, degan gap bor. Bu kishi ruhiyatini xushbo'y iforlar bilan davolash, degani. Masturaxondan malinachilik tajribasini qachon va qanday boshlangani va yuqori daromadga erishish uchun nimalar qilayotganini so'radik.

— Tayloq tumanida yashovchi opamdan 10 tup malina ko'chati olib kelib ekkim, — deya so'z boshladi Masturaxon. — Avval qulupnay uchun

Ishchilarimizning 3 tasi erkak, qolganlari ayollar. "Ayollar daftari" ta'vuchchi qo'shni Nargiza Abdurashidovanning oilasida nogiron farzandi bor. Nargiza bizda ishlash bilan birga farzandi holidan doimo xabardor. Bu yil o'zi ham hovlisiga 50 tup malina ko'chati ekdi.

Tomorqamizda o'g'it tashish, issiqxonadagi og'ir yumushlarni bajarish erkaklar zimmasida. Ko'chat parvarishi mushkul ish emas. Fevral oyida yer malina ko'chatlarini o'tqazish uchun tobiga keladi. Ko'chatlarni ajratib, issiqxonalariga ekamiz va aynan shu oyda hosil berib turgan malinalarni simbag'azlarga tortib bog'lab chiqamiz.

Dastlab 4,5 million so'm daromad qilgan bo'lsak, keyingi yili 100 tup malinadan 20 million so'm foyda oldik. O'tgan yili hovlimizning 25 sotixiga malina ko'chati ekdik va 180 million so'm sof daromad qildik. Bu ishchilarimiz maoshi, issiqxona va o'g'itlarga ketgan sarf-xarajatimizdan tashqari.

— Malina shifobaxshligi bilan qadim zamonlardan ma'lum, — deydi biz bilan suhbatda Jomboy tumani hokimi o'rinbosari, Oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i Hilola Rahimova. — Uning quritilgan gulidan tayyorlanadigan damlama hatto ilon va chayon chaqqanda davolash uchun qo'llanilgan. Tarkibidagi shakar, organik kislotalar, vitaminlar hamda gemotogin birikmalar malina mevasini yara kasalliklari, kamqonlik, qon tomirlari o'tkazuvchanligi buzilishi kabi turli xastaliklarda foydalidir. Malina yuqori nafas yo'llariga antiseptik ta'sir ko'rsatish hamda shamollashning oldini olish xususiyatiga ega bo'lgan antibiotiklarga boy. Uning mevasi qimmatbaho rezavor ekanini aholi o'rtasida keng targ'ibot qildik. Tumandagi tomorqa xo'jaligidan foyda ko'rayotganlar bilan bir



qatorda tomorqasidan unumli foydalanmayotgan uy bekalarni ham jamlab seminarlar o'tkazdik. Mastura opa bu yil 75 sotix yerga malina ekib parvarishlamogda. Hosilni chamalab, 300 million so'mdan ortiq sof daromad qilishi aniq bo'lib turibdi.

Tomorqasidan uzoqqa ketmaydigan oilalarning maktabda o'qiydigan farzandlari fanlarni o'zlashtirishi yuqori. Oya bolasingiz dars tayyorlashini doimo nazorat qilishga vaqti bor. Hovlining narigi chekkasida turib ham supada o'tirib she'r yo'dlayotgan yoki hikoya o'qiyotgan bolaning ovozi eshitish, oxirida mazmunini gapirtirish, uy yumushlarni qilish bilan birga xorij tilidan lug'atlarni yo'dlatish mumkin.

Tomorqada ishlash bolalarni tartib-intizomga, o'dob-axloqqa, halollikka o'rgatga bo'ladi. Xalqimizda "Ko'zdan nari — ko'ngildan nari" degan gap bor. Pul topaman, ro'zg'or tebrataman, deb olis xorijga ketayotgan oilalarda farzand tarbiyasiga putur yetmoqda. Bitta bolaning adashishi yoki jinoyat ko'chasiga kirishi bitta oilaga, bitta qiz bolaning adashishi, aldanishi butun jamiyatga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

— Har joyni qilma orzu, har joyda bor tosh-u tarozi, — deya so'zida davom etdik hokim o'rinbosari. — Xonadonlarda bor imkoniyatlarni o'rganishni qish chillasidayoq boshlaganmiz. Natijada qaysi xonadon nima bilan bo'shimcha daromad qilishni aniqlab olganmiz va reja

asosida ishlayapmiz. Masalan, malina namlikni yaxshi ko'radi. Malinachi oilalarimiz buloq suvidan foydalanadi. Buloq suvidan uzoq bo'lgan xonadonlarga tomchilatib sug'orish usulini o'rgatganmiz.

Uydan chiqqan daromad qilayotganlar sirasiga ipak qurti boquvchilar ham kiradi. Sarchashma mahallasi ahli tomorqlaridan hosil olishdan tashqari ipak qurti yetishtirishdan yaxshi foyda oladi. "Do'stlik" ordeni sohibasi, "Marvar pillachi" nomi bilan tumanda tanliq Marvar opa Bo'riyevaning tajribasini bugun nafaqat tumanimiz, balki viloyatimizda keng o'rganishmoqda. O'z xonadonida ipak qurti laboratoriyasini yaratib, qurt urug'ini tarqatayotgan, xonadonma-xonadan yurib qurtlar parvarishida maslahat berayotgan Marvar opani ayni paytda jizzaxlik ipak qurti yetishtiruvchilar ham maslahatga chaqirib kelibdi.

Bo'riyevlar oilasi ipakchilar sulolasi hisoblanadi. Jomboyda barq uchur bo'soyotgan tutzorlarni ko'rib, bir paytlar tutzorlarga beshafqat munosabat bo'linganini yoddan chiqarmaymiz. Arzimagan chaqa uchun bir oy davomida odamlar xonadonlarni bo'shatib, ipak qurti boqqan. Natijada o'tini aytmasa, qo'li pul ko'rmagan hisobi. Bugun pillachiga ham, tutzorlarga ham munosabat o'zgacha. Bir yilda ikki marta xirmon ko'tarish mumkin. Maoshni pillalarni o'lchab bergach, uch kun ichida qo'lga olishyapti. Bir oy ishlada-da, yil bo'y ishlaganlar qatorda mehnat daftarchasiga ega bo'lmoqda. Natijada pensiya yoshiga yetganlar bemaol nafaqa pullarini olishi va bir oydan so'ng tomorqasidagi boshqa ekinlardan daromad qilishi mumkin.

Jomboyliklarda "qo'shning haqi" degan gap bor. Bu faqatgina moddiy haq emas, ma'naviy haq hamdir. "O'zingda bor bilim va tajribalarni qo'shningga ham ilingin", "Bir bolaga yetti mahalla ota-ona", "Bolalarning begonasi bo'lmaydi". Bu hikmatlar ortidan o'qimlari baraka topmoqda. Yonna-yon devorlardan mehr baxorda shottulardek, olchalar, gilolardek, yozda qirmizi olmalardek, kuzda behilar, shaftollilardek qo'shning uyiga to'kilmogda.

Jomboy tomorqlaridan tomayotgan barakada oilalarga xotirmalik, farog'at, mehr-u oqibat, nur-u muhabbat taralmogda.

O'zbekiston va dunyo

Akmal SAIDOV:

“INSON HUQUQLARI BO'YICHA SAMARQAND FORUMI DUNYO MIQYOSIDA NOYOB VA SAMARALI MULOQOT MAYDONIGA AYLANDI”

tasdiqlangan Inson huquqlari bo'yicha Samarqand deklaratsiyasi qabul qilindi. O'zbekiston parlamentining inson huquqlarining “Samarqandcha ruhi”ni amalga oshirish bo'yicha “yo'l xaritasi” tasdiqlandi. Ushbu hujjatlar inson huquqlari sohasidagi xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, bu ezgu ishni yangi, yanada yuksak pog'onaga olib chiqishga xizmat qildi.

— Ikkinchi Samarqand forumi qaysi mavzuda o'tkazilgan?

— Inson huquqlari bo'yicha II Samarqand forumi “Yoshlar — 2020: global birdamlik, barqaror rivojlanish va inson huquqlari”



mavzusiga bag'ishlab 2020-yil 12-13-avgust kunlari tashkil etilgan.

Agar eslasangiz, u paytlar koronavirus pandemiyasi kuchaygan bir qalits davr edi. Shunday murakkab sharoitda Samarqand forumini onlayn o'tkazishimizga to'g'ri kelgan bo'lsa-da, asosiysi, uning yakunlari

bo'yicha qabul qilingan rezolyutsiya BMT Bosh Assambleyasi 74-sessiyasining rasmiy hujjati sifatida taqdim etildi.

Inson huquqlari bo'yicha II Samarqand veb-forumi rezolyutsiyasi BMTning rasmiy hujjatlar tizimida A/74/998 raqami ostida joylashtirilgan. BMTning 6 ta rasmiy tili — arab, ingliz, ispan, xitoy, rus va fransuz tillariga tarjima qilingan.

— Uchinchi Samarqand forumi “Inson huquqlari sohasida ta'lim” mavzusida o'tkazilgandimi?

— Shunday. Inson huquqlari bo'yicha III Samarqand forumi 2022-yil 5-6-dekabr kunlari bo'lib o'tdi. Ushbu global forumi o'tkazish tashabbusini O'zbekiston Prezidenti BMT Bosh Assambleyasining 76-sessiyasi va BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasida ilgari surgan.

Global forum Inson huquqlari sohasida ta'lim va tarbiya to'g'risidagi deklaratsiyaning 11 yilligiga bag'ishlangan tadbirlarning dastlabkisi bo'ldi. Ko'plab nufuzli xalqaro tashkilotlar rahbarlari Samarqand forumi ishtirokchilariga samimiy qutlovlar bilan murojaat qildi va xalqaro anjuman ishida faollik ko'rsatdi.

Jumladan, BMT Inson huquqlari bo'yicha oliy komissari F.Tyurk O'zbekiston hukumatinin inson huquqlari sohasida ta'lim va tarbiya bo'yicha zimmasiga olgan majburiyatlarini bajarish hamda bu borada boshqa mamlakatlar bilan yaqindan hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan samarali sa'y-harakatlarini yuqori baholadi.

Oliy komissarining ta'kidlashicha, “Inson huquqlari sohasidagi ta'lim insoniyatdagi qiyinchiliklarni yengishga ko'maklashadi. Ayniqsa, yoshlarga bu sohada berilgan puxta ta'lim ularning fuqarolik faolligini oshiradi. Inson huquqlari sohasidagi ta'lim butun umr davomida o'qitilishi, muntazam malaka oshirib borilishi va o'rganilgan bilimlar amalda qo'llanishi talab etiladigan o'ziga xos ta'lim sohasidir. Zero, ta'lim olish hech qachon yosh tanlamaydi”.

Forum yakunida Markaziy Osiyoda inson huquqlari sohasida ta'limni amalga oshirish bo'yicha Samarqand harakatlar rejasini qabul qilingan.

Harakatlar rejasini, global forum ishtirokchilari fikricha, Inson huquqlari sohasidagi jahon ta'lim dasturini amalga oshirish ishiga qo'shilgan katta hissa bo'ldi. Binobarin, Jahon ta'lim dasturining o'zi inson huquqlari sohasida ta'lim va tarbiya to'g'risidagi deklaratsiyani to'ldiruvchi global harakatlar rejasini, degandir.

— To'rtinchi Samarqand forumi arafasida turibmiz. Bo'lajak anjumaning mazmun-mohiyati va ahamiyati haqida qisqacha ma'lumot bersangiz.

— Joriy yil 13-iyunda Inson huquqlari

bo'yicha IV Samarqand forumi o'z ishini boshlaydi. Bu galgi an'anaviy xalqaro tadbir “Ekologik muammolar: o'zgaruvchan dunyoda inson huquqlari kelajagi, barqaror yechimlar topish” mavzusiga bag'ishlanadi.

Bu forum sayorimiz miqyosida uchta inqiroz — iqlim o'zgarishi, bioxilma-xillik yo'qolishi va atrof-muhit ifloslanishi kuchaygan keskin ekologik vaziyatda bo'lib o'tadi. Shu ma'noda, tadbirning asosiy maqsadi iqlim o'zgarishlarining inson huquqlariga ta'siri bilan bog'liq masalalarni keng ko'lamda va axborotlar tahlili negizida atroflicha muhokama qilishdir.

Xalqaro anjuman ishtirokchilari ushbu sohada zarur bilimlar olish bilan birga, xalqaro hamjamiyat doirasida o'zaro tajriba almashish va eng maqbul amaliyotlar bilan tanishish imkoniga ega bo'ladi. Forumda asosiy e'tibor iqlim o'zgarishlarining inson huquqlariga ko'rsatadigan salbiy ta'sirini yumshatishga oid aniq tavsiya va yechimlar tayyorlashga qaratiladi.

Bu boradagi munozaralar barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish va o'zgarayotgan iqlim sharoitida har bir insonning huquqlarini himoyalashga ko'maklashadigan samarador strategiya va yondashuvlarni ishlab chiqish uchun turli soha mutaxassislariga qulay maydon bo'lib xizmat qilishi kutilmoqda.

Forum doirasida onlayn va onlayn tarzda uchta yalpi majlis o'tkazilishi mo'ljallanmoqda.

Birinchi yalpi majlis xalqaro tashkilotlarning atrof-muhit muammolarini hal qilish va inson huquqlarini himoya qilish borasida istiqbolli barqaror yechimlarni topish uchun zarur innovatsion yondashuvlar, ilg'or tajribalar va hamkorlikdagi sa'y-harakatlarini muhokama qilish uchun qulay muloqot maydoniga aylana.

Ikkinchi yalpi majlisda global iqlim o'zgarishining ijtimoiy va iqtisodiy huquqlarga ta'siri ko'rib chiqiladi. O'zgarayotgan iqlim bilan bog'liq sharoitda aholi zaif qatlamlarining huquqlarini ta'minlash bo'yicha aniq



strategiyalarni taqdim etishda davlat organlari, xalqaro tashkilotlar va jamoat institutlarining roliga e'tibor qaratiladi.

Uchinchi yalpi majlis o'zgaruvchan iqlim sharoitida inson huquqlarini samarali himoya qilish borasida mavjud xalqaro va mintaqaviy hujjatlar tahliliga bag'ishlanadi. Bu sessiyaning asosiy maqsadi birgalikdagi yondashuvlarni ishlab chiqish va sayorimizda barqaror hamda adolatli hayot sharoitlarini ta'minlashga qaratilgan global strategiyalarni ishlab chiqishdan iborat bo'ladi.

Forumda 200 mutaxassis qatnashishi rejalashtirilgan. Xususan, milliy va xorijiy ekspertlar, iqlim bo'yicha mutaxassislar, davlat tashkilotlarining iqlim o'zgarishi muammolari bilan shug'ullanadigan mas'ullari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari, ilmiy-tadqiqot markazlari, kompaniyalar, ishlabarmon doiralari va xalqaro tashkilotlarning vakillari nufuzli tadbirga taklif etilgan.

IV Samarqand forumi ishtirokchilari ekologiya va inson huquqlari bilan chambarchas bog'liq ayni xavf-xatarlar hatto dunyo geosiyosiy arxitekturasiga ham ta'sir ko'rsatayotganini hisobga olib, ekologik muammolarga faqat mintaqaviy darajada yondashish bilan cheklanmay, balki bu global tahdidlarning o'ziga xos jihatlarga xalqaro hamjamiyat e'tiborini qaratish istiqbollarni atroflicha muhokama qilishi kutilmoqda.

Muxtasar aytganda, keyingi yillarda O'zbekiston tomoni jahonning yuksak minbarlaridan ilgari surgan qator milliy, mintaqaviy va xalqaro tashabbuslar global iqlim o'zgarishlarining Markaziy Osiyo bilan bog'liq tahdidlari oldini olish uchun mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qilayotganiga hamda barcha hamkorlarning manfaatlariga birdek mos kelishiga amin bo'lmoqdamiz.

Shuning uchun bo'lajak Samarqand forumi ekologiya muammolarining inson huquqlariga ta'sirini o'rganish va ushbu salbiy holatlarga barham berish uchun global ko'lamda maqbul yechimlar ishlab chiqishga bag'ishlanmoqda. Chunki bu izchil sa'y-harakatlarimiz negizida mavjud ekologik muammolarga faqat milliy va mintaqaviy darajada yondashish emas, balki ayni tahdidlarning o'ziga xos jihatlarga xalqaro hamjamiyat e'tiborini qaratish maqsadi ham mujassamdir.

G'ulom MIRZO subhatlashdi.

Boshlanishi 1-betda

Samarqand forumining tashabbuskori O'zbekiston Prezidentidir. Negaki BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrishning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinishining 70 yilligini dunyo miqyosida keng nishonlash borasidagi chorloviga javoban davlatimiz rahbari taklifi asosida inson huquqlari bo'yicha Osiyo forumi sifatida ilk Samarqand forumi tashkil etilgan.

Shunday qilib, BMT tashkil etilganidan keyingi 70 yil davomida Osiyo mintaqasida birinchi marta inson huquqlari bo'yicha xalqaro forum o'tkazilgan. O'sha forumning tashabbuskori va mezboni O'zbekiston bo'lgan.

Keyingi olti yil davomida an'anaviy forumni to'rtinchi bor o'tkazmoqdamiz. To'rtta forumning o'zaro farq qiladigan asosiy bir jihati bor. U ham bo'lsa, Inson huquqlari bo'yicha Samarqand forumining har qaysisi inson huquqlarining alohida bir dolzarb mavzusi muhokamasiga bag'ishlangan.

— Shu o'rinda Samarqanddagi birinchi forum qaysi mavzuda o'tkazilganini eslab o'tsak.

— Samarqand forumi ilk bor 2018-yil noyabrda bo'lib o'tgan. U “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinishining 70 yilligi yakunlari: zamonaviy tahdidlar va real voqe'lik” mavzusiga bag'ishlangandi.

O'sha forum jahonda, jumladan, Janubi-Sharqiy Osiyodan tortib, Yaqin Sharqqa ham bo'lgan makonda qurolli to'qnashuvlar kuchayib, o'zaro ishonchsizlik va nizolar, millatlar va konfessiyalararo ixtiloflar chuqurlashib borayotgan, barqaror taraqqiyotga qarshi boshqa global tahdid hamda xatarlar kuchaygan murakkab sharoitda o'tkazilgandi.

Shu ma'noda, O'zbekiston Prezidentining inson huquqlari bo'yicha Osiyo forumi ishtirokchilariga yo'llagan tabrigida: “Bizning qat'iy ishonchimizga ko'ra, jami 4,5 milliarddan ziyod aholi istiqomat qilayotgan Osiyo mintaqasining kelajagi ko'p jihatdan BMT tomonidan 2030-yilga qadar barqaror taraqqiyot sohasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga tayyor bo'lishga, shuningdek, inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha samarali mintaqaviy mexanizmi shakllantirishga bog'liq”, deb ta'kidlangani bejiz emas.

Xalqaro anjuman yakunida BMT Bosh Assambleyasining 73-sessiyasi hujjati sifatida

“

IV Samarqand forumi ishtirokchilari ekologiya va inson huquqlari bilan chambarchas bog'liq ayni xavf-xatarlar hatto dunyo geosiyosiy arxitekturasiga ham ta'sir ko'rsatayotganini hisobga olib, ekologik muammolarga faqat mintaqaviy darajada yondashish bilan cheklanmay, balki bu global tahdidlarning o'ziga xos jihatlarga xalqaro hamjamiyat e'tiborini qaratish istiqbollarni atroflicha muhokama qilishi kutilmoqda.

“

E'tirof



International Labour Organization

O'ZBEK DIPLOMATIYASI YUTUG'I

Endi mamlakatimiz Xalqaro mehnat tashkiloti boshqaruv kengashida o'z ovozigaga ega



O'zbekistonning mana shu davlatlar qatoridan o'rin olishi mamlakatimizdagi islohotlarga berilgan yuksak bahodir.

Bundan o'n yil oldin O'zbekiston XMTning 8 ta konvensiyasini ratifikatsiya qilgan bo'lsa, hozir bu raqam 22 taga yetdi. Milliy qonunchiligimiz ham ana shu hujjatlarga moslashtirildi.

Endi mamlakatimiz XMT a'zosi sifatida tashkilotning butun faoliyatiga daxldor masalalarni ko'rib chiqadi. Bu davlatimizning global mehnat siyosatidagi ishtirokida yangi imkoniyatlar eshigini ochadi.

Xorijlik ekspertlar ta'kidicha, O'zbekiston qisqa muddatda yuqori natijalarga erishgan mamlakat sifatida boshqa davlatlar uchun

Mamlakatimizning faol pragmatik tashqi siyosati ko'plab yutuq va xalqaro e'tiroflarga sazovor bo'lmoqda. Buni birgina o'tgan hafta kuzatilgan ikki muhim voqea — O'zbekistonning tarixda birinchi marta BMT Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi hamda Xalqaro mehnat tashkiloti ma'muriy kengashi a'zoligiga saylangani misolida ham ko'rish mumkin. Bu, shubhasiz, milliy, mintaqaviy va xalqaro darajada ilgari surilayotgan taklif va tashabbuslar, ochiqlik siyosati, umuman, yangi o'zbek diplomatiyasining yutug'i, xalqaro e'tirofidir.

Xalqaro mehnat konferensiyasining Jeneva shahrida bo'lib o'tayotgan 112-sessiyasida mamlakatimizdagi islohotlar alohida e'tirof etildi. Konferensiya doirasida XMT boshqaruv kengashiga 2024-2027-yillar uchun a'zo davlatlarni tayinlash bo'yicha saylov o'tkazildi. Ovoz berish jarayonida 209 davlat ishtirok etdi. O'zbekiston XMT Yevropa mintaqaviy guruhida 194 ta ovoz oldi va nomzod davlatlar — Avstriya, Xorvatiya, Kipr, Vengriya, Niderlandiya va Daniya orasida birinchi o'rinni egalladi.

Xalqaro mehnat tashkiloti BMT tizimining ixtisoslashtirilgan muassasasi bo'lib, ijtimoiy adolat tamoyillarini, xalqaro tan olingan inson huquqlari va mehnat sohasidagi huquqlarni ilgari suradi.

Tashkilot 1919-yilda tashkil etilgan hamda 1946-yili BMT tizimiga kirgan birinchi ixtisoslashtirilgan muassasa bo'ldi. Xalqaro mehnat me'yorlarini belgilashda XMTning konvensiya va tavsiyalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Ma'muriy kengashda xalqaro miqyosda asosiy qarorlar, konvensiyalar, qonunlar, ijtimoiy masalalar, mehnatni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro shartnomalar qabul qilinadi.

XMT boshqaruv kengashi uning ijro etuvchi organi. Kengashning asosiy vazifasi konferensiya sessiyalari davrida tashkilot ishiga rahbarlik qilish va qarorlarini amalga oshirish tartibini belgilashdir. Boshqaruv kengashi tarkibi 56 a'zodan iborat, 28 hukumat vakili, 14 ish beruvchi va 14 ishchi kiradi. Shuningdek, 28 davlat vakili, 19 ish beruvchi va 19 ishchidan iborat 66 o'rinbosar mavjud.

Tashkilot boshqaruv kengashi a'zolarining 10 o'rni doimiy asosda yetakchi davlatlar tomonidan band qilingan. Qolgan a'zolar har uch yilda rotatsiya asosida qayta saylanadi.

XMT boshqaruv kengashida 28 davlat ishtirok etadi. Mana shu davlatlarni tanlab olishda, eng avvalo, ushbu mamlakatlarda kuzatilgan ijobiy o'zgarishlar, tub islohotlarga baho beriladi.

o'mak bo'layotgani qator xalqaro anjumanlarda ta'kidlanmoqda.

— Bundan besh yil oldin O'zbekiston XMTning “gora ro'yxati”da edi. Boshqaruv kengashi tugul, biror-bir qaror qabul qilishda ham mamlakatimizning fikri e'tiborga olinmasdi, — deydi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vaziri Behzod Musayev. — Davlatimiz rahbarining qat'iy sa'y-harakati natijasida uzoq yillar mamlakatning xalqaro imjiga salbiy ta'sir qilib kelgan majburiy mehnatga to'liq barham berildi. Natijada XMT ekspertlari bu masalani atroflicha o'rganib, birinchi navbatda, O'zbekiston “gora ro'yxat”dan chiqarilgan bo'lsa, mana bugun boshqaruv kengashi a'zoligiga saylandi.

Endi tegishli tashkilotlar mutasaddilari mas'uliyati ham oshiriladi. Xususan, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Kasaba uyushmalari federatsiyasi hamda Ish beruvchilar konfederatsiyasi hamkorligida munosib mehnat tamoyillarini ilgari surish, xodimlarning huquq-manfaatlarini har tomonlama himoya qilish borasida yangi tashabbus va imkoniyatlarni tatbiq etishni yanada kuchaytirish lozim.

Xo'sh, XMTga a'zolik O'zbekistonga nima beradi, degan savol ko'pchilikni qiziqtirishi tabiiy. Tashkilotga a'zolik davomida mamlakatimiz dunyoda kechayotgan iqtisodiy, ijtimoiy hamda ekologik o'zgarishlarga qarashlarini bildiradi. Shu bilan birga, jahon tajribasini o'rganib, uni yurtimizda joriy etishiga hissa qo'shadi.

Lutfulla SUVONOV, “Yangi O'zbekiston” muxbiri



Ogohlik

TEKIN PISHLOQ FAQAT QOPQONDA BO'LADI

"UZ" domenidagi veb-saytlarga kiberhujumlar soni ortmoqda



Yon-atrofimizda ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan yolg'on xabarlar ishonib, kiberhujumga uchrayotgan va pulini o'g'irlatib qo'yayotganlar yo'q emas. Qizig'i, bunday tuzoqqa bir emas, bir necha marotaba tushayotganlar ham bor. Axboriy immunitetimizga qanchalik ishonmaylik, kiberfiribgarlar o'ylab topayotgan yangidan yangi aldov usullari jozibadorligi bilan bizni chalg'itib qo'yayotir.

Kiberjinoat, ya'ni virtual makonda foydalangan holda firibgarlik qilish zamonaviy va eng tez o'sib borayotgan jinoyatlardan biriga aylangan. Dunyo bo'ylab qanchadan qancha tashkilotlar, odamlar bundan aziyat chekmoqda. Axborot texnologiyalari rivoji va raqamlashtirish faollashuvi ortidan yurtimizda ham kiberjinoatlar soni oshib boryapti.

Ma'lumotlarga ko'ra, internetning "uz" domenidagi axborot tizimlarini buzib kirish, ularga zarar yetkazishga urinishlar ko'rsatkichi oxirgi yillarda 148 foiz oshgan. Xususan, 2022-yili O'zbekistonda axborot resurslariga 4,5 million kiberhujum qayd etilgan bo'lsa, 2023-yili bu ko'rsatkich 11 millionga yetgan. Raqamlar kibertajovuz holati 2,4 barobar ko'payganini ko'rsatadi. Shu yilning birinchi choragida aniqlangan kiberjinoatlar soni esa allaqachon 3 milliondan oshgan.

Vaziyat tobora jiddiy tus olib, raqamlar o'sib bormoqda. Internet olg'irlari kiberhujumning yangi turlarini o'ylab topib, muhim ma'lumotlar, odamlarning mablag'ini o'zlashtirishda davom etyapti. Joriy yilning dastlabki besh oyida "uz" domeni zonasidagi veb-saytlarga 6,6 milliondan ziyod kiberhujum bo'lgani so'zimiz tasdiq'idir. "Kiberxavfsizlik markazi" DUK departamenti boshlig'i A'zam G'ofurov bilan zamonaviy muammoning bugungi holati, rivojlanish oqimi hamda unga qarshi kurash choralarini haqida suhbatlashdik.

— Har qancha inkor etishga urinmaylik, bugungi dunyoni zamonaviy texnologiyalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi, — deydi u. — Bu soha jadal rivojlanar ekan, uni chuqur tushunadigan, imkoniyatlaridan nafaqat ijobiy, balki salbiy maqsadda foydalanadiganlar ko'payishi ham tabiiy. Kiberjinoatlarning ko'payishi davlat tashkilotlari, xususiy kompaniyalar, shuningdek, fuqarolar uchun jiddiy muammo qayladi.

Bu muammo yurtimizga faol kirib kelganidan ko'z yumib bo'lmaydi. Mamlakatimiz qonunchiligiga ko'ra, kiberjinoat axborotni egallash, o'zgartirish, yo'q qilish yoki axborot tizimlari va resurslarini ishdan chiqarish maqsadida kibermakonda dasturiy ta'minot, texnik vositalardan foydalangan holda qilinadigan jinoyatlar yig'indisidir. Tabiiyki, kiberjinoatlarga qarshi kurashish hamda oldini olishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Bugun kiberjinoatning ko'plab turlari mavjud. Tarmoq hujumlari, himoya tizimidagi zaifliklardan foydalanish, zararli dasturlar, shifrlanish viruslar bilan axborot tizimlariga shikast yetkazish hamda internetdan foydalangan holda firibgarlik, ya'ni ijtimoiy muhandislik hujumlari shular jumlasidan.

Hozirgacha ko'ra, kiberhujumlar har qanday holatda ham jiddiy muammordir. Davlat boshqaruv organlari veb-resurslariga kibertajovuzlarning oldini olish davlat boshqaruvini avtomatlashtirish hamda raqamlashtirish jarayonida yanada dolzarb tus olyapti. Aksariyat holatda davlat organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar veb-resurslarida kiberxavfsizlikni ta'minlashda muammolar yuzaga kelmoqda. Trafikni filtrlash yetarli darajada yoki mavjud emasligi yuzaga kelgan xavfning sabablaridan biridir. Oqibatda himoya qilinmagan resurs tajovuz obyektiga aylanadi.

Kiberjinoatlar, ayniqsa, bank-moliya tizimiga jiddiy xavf tug'dirmoqda. Buni ko'rsatkichlar ham tasdiqlaydi. O'tgan yili sodir etilgan 11 million tajovuzdan 24 foizi shu soha resurslari ulushiga to'g'ri keladi.

— Kiberhujumlar oqibatida fuqarolar ham katta moliyaviy yo'qotishlarga duch kelmoqda. Bu shaxsiy kibergiyena shakllanmagani bilan bog'liq, deyilmoqda. Shu bilan birga, soha mutaxassislari aholini kiberhujumlardan himoyalash uchun qanday choralar ko'rmoqda?

— Istaymizmi-yo'qmi, masalaning asosiy jihati baribir shaxsiy immunitetga borib taqaladi. Internet foydalanuvchilarida kibergiyenaning deyarli yo'qligi, axborot makonida o'zini tutish qoidalarini to'liq anglamagani, rioya qilmasligi yoki bilimlar sayozligi tufayli kibertajovuzlar yuz berishida inson omili katta rol o'ynamoqda.

Shu bois, bu turdagi jinoyatlarning eng keng tarqalgani internet tarmoqlaridagi firibgarliklar bilan bog'liq. Ayniqsa, onlayn xaridlar, onlayn kredit olish va berish, to'lov kartasi bilan bo'ladigan amaliyotlarda telefon qo'ng'iroqlari hamda SMS xabaromalaridan foydalangan holda mablag' o'zlashtirish holatlari ko'p uchramoqda.

Kiberhujumlarning asosiy qurboni internet foydalanuvchilari ekanini inobatga olsak, ko'lam naqadar keng ekanini yaqqol ko'rinadi. Ma'lumotlarga ko'ra, dunyo aholisining 60 foizi

30 foizi mahalliy, 70 foizi xorijdagi xakerlar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Monitoring tizimiga ulangan veb-resurslarga hujum turlari orasida eng ko'p qo'llangan SQL inyeksiya, protokollarni majburiy qo'llash va cheklangan fayllarga ruxsatsiz kirish bo'lgan.

Tahlillarga ko'ra, kiberhujumlar har qanday holatda ham jiddiy muammordir. Davlat boshqaruv organlari veb-resurslariga kibertajovuzlarning oldini olish davlat boshqaruvini avtomatlashtirish hamda raqamlashtirish jarayonida yanada dolzarb tus olyapti. Aksariyat holatda davlat organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar veb-resurslarida kiberxavfsizlikni ta'minlashda muammolar yuzaga kelmoqda. Trafikni filtrlash yetarli darajada yoki mavjud emasligi yuzaga kelgan xavfning sabablaridan biridir. Oqibatda himoya qilinmagan resurs tajovuz obyektiga aylanadi.

Kiberjinoatlar, ayniqsa, bank-moliya tizimiga jiddiy xavf tug'dirmoqda. Buni ko'rsatkichlar ham tasdiqlaydi. O'tgan yili sodir etilgan 11 million tajovuzdan 24 foizi shu soha resurslari ulushiga to'g'ri keladi.

— Kiberhujumlar oqibatida fuqarolar ham katta moliyaviy yo'qotishlarga duch kelmoqda. Bu shaxsiy kibergiyena shakllanmagani bilan bog'liq, deyilmoqda. Shu bilan birga, soha mutaxassislari aholini kiberhujumlardan himoyalash uchun qanday choralar ko'rmoqda?

— Istaymizmi-yo'qmi, masalaning asosiy jihati baribir shaxsiy immunitetga borib taqaladi. Internet foydalanuvchilarida kibergiyenaning deyarli yo'qligi, axborot makonida o'zini tutish qoidalarini to'liq anglamagani, rioya qilmasligi yoki bilimlar sayozligi tufayli kibertajovuzlar yuz berishida inson omili katta rol o'ynamoqda.

Shu bois, bu turdagi jinoyatlarning eng keng tarqalgani internet tarmoqlaridagi firibgarliklar bilan bog'liq. Ayniqsa, onlayn xaridlar, onlayn kredit olish va berish, to'lov kartasi bilan bo'ladigan amaliyotlarda telefon qo'ng'iroqlari hamda SMS xabaromalaridan foydalangan holda mablag' o'zlashtirish holatlari ko'p uchramoqda.

Kiberhujumlarning asosiy qurboni internet foydalanuvchilari ekanini inobatga olsak, ko'lam naqadar keng ekanini yaqqol ko'rinadi. Ma'lumotlarga ko'ra, dunyo aholisining 60 foizi

ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadi. Internet makonida esa axborot nihoyatda ko'p, ulami bir-biridan farqlash, yolg'on xabarlarini ajrata olish uchun ham immunitet shakllangan bo'lishi kerak.

Boisi, kiberjinoatchilar ko'pincha fuqarolarning ishonuvchanligidan foydalanadi. Odamlarning o'zi ma'lumotlarini ixtiyoriy taqdim etishi oqibatida firibgarlar tuzog'iga tushadi. Masalan, hozirgi vaqtda fishing yoki feyk saytlardan foydalangan holda ishga taklif qilamiz, daromad topishga yordamlashamiz, degan mazmunda aholini qiziqitadigan yolg'on xabarlardan foydalanib, aldov, firibgarlik yo'li bilan shaxsiy ma'lumotlar yoxud mablag'ni o'zlashtirish holati ko'paygan. Qolaversa, firibgarlar ko'zga ko'ringan tashkilotlar nomidan turli ijtimoiy tarmoqlarda reklama bannerlarini

ma'lumotlarni kiritadi. Kiberfiribgarlar hatto telefon suhbatlari, SMS xabaromalar orqali ham suhbatdoshining ishonchiga kirishni udalayapti.

"Kiberxavfsizlik markazi" davlat unitar korxonasi fuqarolarning kibergiyenadan xabardorligini tekshirish bo'yicha ijtimoiy so'rovnomaga ham o'tkazdi. Olingan natijalar tahlil qilinishida ishtirokchilar kibertahdidlardan himoyalash borasida ma'lumotga ega ekanini ko'rdi. Masalaning qiziq jihati bor: odamlar bunday firibgarliklardan xabardor bo'lsa, unda nega kibermakonda pulini o'g'irlatib, jabrlanayotganlar soni kamaymayapti? Gap shundaki, zamonaviy axborot texnologiyalari kundan kun rivojlanayapti. Shunga yarasha kibermakonda ham yangidan yangi jinoyatchilik turlari, sotsial injiniringning turfa xili ko'paymoqda. Bu hatto kiberimmuniteti bor aholining ham ba'zan aldanib qolishiga sabab bo'lyapti.

Jahon tajribasida kiberjinoatchilikka qarshi kurashishda, asosan, profilaktik tadbirlarni amalga oshirish, zamonaviy himoya vositalaridan foydalanish, kiberxavfsizlik talabari va tavsiyalariga qat'iy rioya qilish kabi yechimlardan foydalaniladi. Yurtimizda ham ushbu yo'nalishda vakolatli organ hamda huquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlar tomonidan kiberhujumlarni monitoring qilish, kibertahdidlarni aniqlash va chora ko'rish, shuningdek, veb-ilovalarni turli xurujlardan himoya qilish tizimi joriy etilgan va muntazam takomillashtirilayapti. Mamlakatimizdagi tijorat banklari va to'lov tizimi operatorlari ham kiberfiribgarliklarning oldini olish uchun



tarqatish orqali qiziqarli sabablarni ko'rsatib, odamlarni chuvi tushiryapti.

Ijtimoiy tarmoqlarda ham turli ishonchsiz havolalar tarqatish orqali akkauntlarni boshqarish huquqini egallab olish va egallangan akkauntlar yordamida kontaktidagi boshqa akkauntlarga turli reklama yoki ilovalar yuborish, ularning ma'lumotlarini o'zlashtirish holatlari uchramoqda. Tanishidan kelgan xabarga ko'pchilik ishonib, ilovaga kiradi va so'ralgan

masofadan to'lov xizmatlari ko'rsatishda xavfsizlik va axborot muhofazasini ta'minlovchi zamonaviy tizimlarni qo'llamoqda. Qolaversa, jarayonga keng jamoatchilik va xususiy sektor vakillarini jalb etish bo'yicha faol ishlanyapti.

Bu yo'nalishda huquqiy asoslar ham muhim. Shu bois, kibertahdidlarga chora ko'rishda me'yoriy-huquqiy hujjatlar bazasi, usul va vositalari takomillashtirilib, vakolatli organlar tomonidan kompyuter-texnikaviy ekspertiza

o'tkazish va kiberjinoatlarni ochishning ilg'or texnologiyalari joriy etilmoqda. Kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish ishlari muntazam bajarilayapti. Profilaktika-targ'ibot tadbirlari o'tkazilib, aholining kiberfiribgarlik turlaridan xabardorligini oshirishga qaratilgan kontentlar yaratilmoqda. Kiberjinoatchilik ko'pincha transchegaraviy xarakterga ega bo'lgani bois, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilayapti.

— Ta'kidlaganingizdek, axborot texnologiyalari rivoji kiberjinoatlar ortishiga ham ta'sir ko'rsatyapti. Xo'sh, ularga qarshi xavfsizlik choralarini qo'llashda bu ilg'or texnologiyalar ish beradimi? Aniqlangan kiberjinoatlar qanday bartaraf etilyapti?

— Kiberjinoatlarning har bir turi uchun har xil usul va vositalar qo'llanadi. Firibgarlik aniqlangan veb-resurslar va zararli dasturlarni tarqatish manbasini ihotalashdan tortib, kompyuter-texnik tadqiqotlar o'tkazish va murakkab kiberjinoatlarni ochishga yordam beradigan raqamli izlarni yig'ish hamda qayd etishgacha bo'lgan ishlar bajariladi. Buning uchun huquqni muhofaza qilish organlari hamda Kiberxavfsizlik markazida maxsus dasturiy ta'minotlar va uskunalar yordamida raqamli kriminalistika laboratoriyalari ochilgan. Bu yerda faoliyat yuritish uchun texnik oliy ma'lumotga ega malakali kadrlar saralab olinadi.

Mas'ul mutaxassislar kiberjinoatlarni real vaqt rejimida aniqlash uchun turli axborot tizimlari yaratib, muttasil takomillashtirib boradi. Davlat axborot tizimlari va resurslarini kiberhujumdan himoyalash tizimlarini ham mutaxassislar joriy qilgan. Masalan, ichki tarmoq va veb-ilovalarni himoya qilishga mo'ljallangan apparat-dasturiy vositalar (Firewall va WAF), kiberhujumlarni bartaraf etishda IDS/IPS tizimlari, kompyuterlarni real vaqt rejimida zararli dastur hamda kiberhujumlardan himoyalovchi EDR dasturlari, ko'p faktorli autentifikatsiya (SMS kodi, elektron manzil, USB kalit yoki OTP orqali) texnologiyalari ishlatiladi. Tijorat banklari hamda to'lov tizimlari operatorlari shubhali to'lov operatsiyalarini aniqlash va cheklash uchun zamonaviy "Anti-fraud" tizimlaridan foydalanib keladi.

Shuningdek, kiberhujumlarga chora ko'rish uchun UZCERT xizmati ishlab turibdi. Mazkur xizmatning asosiy vazifasi internet tarmog'ining milliy segmenti foydalanuvchilari uchun kibertahdidlar darajasini pasaytirishdan iborat. UZCERT xizmati mahalliy va xorijiy yuridik hamda jismoniy shaxslarga "uz" domenidagi axborot tizimlari va resurslariga qarshi qaratilgan noqonuniy faoliyatni aniqlash, oldini olish, kiberxavfsizlikka daxldor hodisalarni tekshirish, CERT va SOC markazlar yaratishda ko'maklashadi.

Joriy yil fevralida "Kiberxavfsizlik markazi" DUK mutaxassislarining sa'y-harakati va uzoq yillik hamkorlikdan so'ng UZCERT xizmati dunyoda kiberxavfsizlik sohasidagi yetakchi tashkilotlardan biri — "FIRST" xalqaro tuzilmasining to'laqonli a'zosi maqomiga erishdi. Mazkur xizmat shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va kiberxavfsizlikni ta'minlashda qator vazifalarni tavsiya qiladi. Shubhali veb-ilovalarga kirmaslik va noma'lum manbalardan ilovalar yuklab olinmaslik, qurilmalarda litsenziyalangan antivirus mahsulotlaridan foydalanish, shaxsiy ma'lumotlar, plastik karta raqamlari va SMS kodlarni noma'lum shaxslarga bermaslik shular jumlasidan.

Eng muhimi, fuqarolar kibergiyena qoidalariga rioya qilishi maqsadga muvofiq. Masalan, murakkab parollar, ikki faktorli autentifikatsiya hamda antivirus dasturiy ta'minotlaridan foydalanish, operatsion tizim va dasturlarni muntazam yangilab turish, shaxsiy ma'lumotlar konfidensialligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Qolaversa, kiberxavfsizlik masalalari bo'yicha aholi yordam olishi uchun ishonch telefonlari ishlab turibdi.

"Yangi O'zbekiston" muxbiri Iroda TOSHMATOVA suhbatlashdi.

Kun mavzusi



Shu kunlarda ijtimoiy tarmoqlarda, ommaviy axborot vositalarida katta-katta maydonlarga chigirtka tarqalayotgani haqidagi xabarlar ko'paydi. Xususan, bir necha kun avval Qozog'iston hududida chigirtka misli ko'rilmagan darajada tarqalgani haqida xabarlar e'lon qilindi. Vaziyat O'zbekiston hududida favqulodda holat tusini olmasligi uchun qo'shni davlat bilan transchegaraviy hududlarda, xususan, Navoiy, Toshkent viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida nazorat kuchaytirildi.

Qozog'istonda chigirtkaga qarshi kurash tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi. Buning natijasida eng qimmatli resurs — vaqt

tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi. Buning natijasida eng qimmatli resurs — vaqt

CHIGIRTKALAR "YURISHI"GA QARSHI QANDAY KURASHILMOQDA?

boy berilib, chigirtka chegaradosh hududlarda uchib o'tishiga sharoit paydo bo'lmoqda. Hozir biz qozog'istonlik hamkasblarimiz bilan aloqadami. Aytishlaricha, ularda chigirtka keng maydonlarga tarqalgani va ushbu joylarda qarshi kurash tadbirlari olib borilayotgani to'g'risida ma'lumot berildi.

Chigirtka havo harorati ko'tarilgan sari o'rta hisobda 5-6 kunda 1 yoshga kiradi, ya'ni eng xavfli hisoblangan fazaga — qanot chiqarish davriga yetib keladi. Ular kuniga 50-60 kilometr gacha masofani uchib o'tishi mumkin.

Bizda, asosan, Buxoro viloyatida shunday holatlar kuzatilayotgani xabar qilindi. Bu o'z nomi bilan saksovluk bukur chigirtkasi bo'lgani uchun saksovluga zarar beradi. Boshqa ekinlarga zarar keltirmaydi. Chigirtkalar hozirgi kunda yetuk zotga o'tgan, tuxum qo'yish pallasida. Tuxum qo'ygandan keyin 10-15 kunda tabiiy nobud bo'lishi jarayoni kuzatiladi.

Bugungi kunga qadar Buxoro viloyatida 12

ming 321 gektar maydonda kurash tadbirlari o'tkazilgan. Shuningdek, qo'shni Xorazm viloyatida tarqalish o'choqlarining oldini olish maqsadida 3272 gektarda kimyoviy ishlov o'tkazildi.

Hozir barcha chegara hududlarida zarur choralar ko'rilmogda. Umuman, joriy yilda mamlakatimiz saksovluzorlarida, xususan, Qizilqumda katta va kichik saksovluk bukur chigirtkasiga qarshi aprel oyining uchinchi dekadasiidan kurash choralarini ko'rish boshlangan. Buxoro, Navoiy, Xorazm viloyatlarida tizimli ish tashkil etilgan. Qoraqalpog'iston shimolida ob-havo salqin kelgani sababli chigirtkalarga qarshi kimyoviy ishlov iyun oyidan boshlandi.

Bugungi kungacha chigirtkaning qishloq xo'jaligi ekinlariga jiddiy zarar yetkazishi kuzatilmagan.

Dunyoda saksovluk bukur chigirtkasi, marokash va italiya chigirtkalari to'da hosil



qiluvchi turlariga kirgani sababli ularga qarshi kurash tadbirlari olib boriladi.

2024-yilda respublikamizda 574,8 ming gektar maydonda chigirtkalarga qarshi kurash tadbirlari o'tkazilishi bashorat qilingan. Bugungi kunga qadar 375,4 mingdan ortiq gektar maydonda kimyoviy ishlov o'tkazildi. Hududlarda doimiy kuzatuv-nazorat ishlari o'tkazilib, zararli chigirtkalarining o'choqlari

aniqlangan joylarda tezkor kurash choralarini o'tkazilib, favqulodda vaziyat yuzaga kelishining oldi olinmoqda.

Bobur HAMROYEV,
Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi O'simliklar karantini va himoyasi agentligi direktorining birinchi o'rinbosari

MA'NAVIY IMMUNITET O'ZLIKNI ANGLASHDAN BOSHLANADI

Nuqtayi nazar

O'tgan yil yakunida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida ma'naviyat-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan ishlar tahlil qilindi, yoshlarning ma'naviy mafkurasini mustahkamlash masalalari xususida alohida so'z yuritildi.

manfaatidan kelib chiqib, tizimli tashkil etish zarurati ham yuzaga keltiradi.

Ta'lim-tarbiya tizimi ma'naviyatni shakllantirishga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillardan. Ota-bobalarimiz azaldan ilm-u ma'rifatni bebaho xazina sifatida e'zozlagan, ta'lim-tarbiyani inson kamolotining sharti deb bilgan. Darhaqiqat, ta'lim-tarbiya tizimi va shu asosda ongni o'zgartirmay, ma'naviyatni rivojlantirib bo'lmaydi.

AQSH, Yaponiya, Finlyandiya, Germaniya, Fransiya kabi rivojlangan davlatlar tajribasidan ma'lumki, o'qish jarayonida har bir talabning ma'naviyat-ma'rifiy tadbirlardagi ishtiroki, harakati (yoki harakatsizligi) "Ijtimoiy faollik indeksi" sifatida baholab boriladi va bu bitiruvchining portfoliosida muayyan ball sifatida o'z aksini topadi.

Bizda ham talaba va o'quvchilarning ijodiy faolligini oshirish, milliy adabiyotimiz ravnaqiga



muvofiq, joriy yil yoz oylari va yangi o'quv yilidan boshlab poytaxtimizdagi har bir oliy ta'lim muassasasi Adilbar xiyobonida besh muhim tashabbus doirasida talabalar festivalini o'tkazishi ko'zda tutilgan.

Ushbu festivallarda besh muhim tashabbus yo'nalishlari bo'yicha tanlov va musobaqalar, ko'rgazmali chiqishlar, madaniyat, san'at va adabiyot mavzularida fotoko'rgazma, liboslar, amaliy ijod namunalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha ko'rgazma, tanlov va boshqa turli chiqishlar tashkil etiladi.

Bundan tashqari, talabalarimiz teatr studiyalari tomonidan mazkur xiyobonda haykallari o'rnatilgan atqoliq adiblarning hayoti, faoliyati va asarlari asosida sahna ko'rinishlari namoyish etish, poytaxtdagi OTMLar o'rtasida "Barhayot an'analar" shiori ostida "Milliy qadriyatlar sayli" tanlovi o'tkazishni reja qilganmiz.

Yana bir muhim yangilik: xiyobonda haykali o'rnatilgan adiblar yozmalarining gologrammasini yaratish va yoshlarga namoyish qilib borishni rejalashtirdik. E'tiborli jihati, gologramma orqali adiblarning o'z umr yo'li haqida so'zlab berishini ovozi aks ettirish mumkin.

Xiyobon veb-saytini takomillashtirish, ijtimoiy tarmoqlarda uning rasmiy sahifalarini yaratish va doimiy ravishda yuritilishini ta'minlash, shoir va yozuvchilar hayoti hamda ijodiga bog'liq dekoratsiyalarni joylashtirish, xiyobonning marshrut xaritasini yaratish, infokiosklarning doimiy ishlashini ta'minlash ham ko'zda tutilayapti.

Mamlakatimizda milliy ma'naviy tiklanish, yosh avlod ongi hamda dunyoqaroshini milliy qadriyatlar asosida boyitib borish, milliy ma'naviyatimizni turli tahdidlardan asrash, yoshlarni tafakkuri keng, kreativ fikrlaydigan, tashabbuskor, halol va jonkuyar hamda muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror chiqaradigan qilib tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratilayotgani e'tirofqa loyiq. Zero, ma'naviyat har bir xalqning tarqatqo'yi sari eltuvchi eng to'g'ri yo'ldir.



Nodir QOSIMOV, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi boshqarma boshlig'i

Davlatimiz rahbari yig'ilishda: "O'zimizga bir savol berib ko'raylik: biz hozirgi keskin sharoitda g'oyaviy-mafkuraviy sohada raqobatga tayyormizmi? Yosh avlodimiz tarbiyasi murakkab zamon talablariga javob beryaptimi? Mana, bugun ma'naviyat-ma'rifiy sohada masala qanday o'tkir va ko'ndalang bo'lib turibdi. Bular oddiy savollar emas. Odamni jiddiy o'ylantiradigan, tashvishga soladigan savollar. Agar biz bu yorug' dunyoda "o'zbek", "O'zbekiston" degan nomlar bilan yashab qolishni istaydigan bo'lsak, bu savollarga bugun javob topishimiz va ularni hal etish bo'yicha amaliy harakatlarni aynan bugun boshlashimiz shart. Ertaga kech bo'ladi", deya ta'kidladi.

Sifatli ta'lim-tarbiya berishda yoshlarning ma'naviy tafakkurini rivojlantirish hamda ularni ajdodlarimiz boy ma'naviy merosiga hurmat ruhida tarbiyalash bugunning dolzarb masalalaridan. Ayniqsa, zamonaviy bilimlarni egallab, internetning doimiy foydalanuvchisiga

aylangan talabalarning yot, buzg'unchi g'oyalari ta'siriga tushib qolmasligi va ma'naviy immunitetini mustahkamlashda ham ma'naviyat boshqa sohalaridan o'n qadam oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak!

Mafkuraviy immunitet haqida gapirishdan avval immunitet tushunchasiga to'xtalsak. Umuman, immunitet nima o'zi? U qanday shakllantiriladi? "Immunitet" so'zi tibbiy tushuncha bo'lib, organizmni turli ta'sirlardan, tashqi infeksiyalari kirib kelishidan himoya qilishga qaratilgan reaksiyalarni majmuyidir. Sodda qilib aytganda, immunitet — kishi organizmni turli kasalliklardan himoya qila olish qobiliyati. Ma'naviy immunitet esa har qanday tashqi salbiy ta'sirga chidamli bo'lish, qarshi turish, degani. Ushbu tushunchani falsafiy jihatdan tahlil qilsak, immunitet deganda, tashqaridan boshqariladigan g'oyaga yoki voqea-hodisaga qarshi himoya, oldini olish, unga qarshi kurashish ko'nikmasining hosil bo'lishini tushunish mumkin.

Tan olish kerak, bugun tashvish, ancha erkin fikrlash yoshlari bilan yonmayon faoliyat yuritish oson emas, ammo o'z o'rnida zavqli ham. Yoshlar bilan ishlash esa pedagoglardan doimiy rivojlanishni, malaka oshirib borishni talab qiladi.

Buzg'unchi g'oya targ'ibotchilari, asosan, qaysi qatlamga "qarmoq" tashlaydi? Tabiiyki, kuchsiz va mo'rt qatlam — mafkuraviy immuniteti sust toifaga. Bunday qatlamning aksariyat qismini yoshlar tashkil etadi. Shu bois, asosiy e'tiborni yosh avlodga qaratishimiz zarur. Buning uchun esa vaqtni havoga sovruvchi yoki safsatabozlikdan iborat tadbirlarga talabarni majburiy jalb etish va shakli eskirgan ma'rulabozlikdan voz kechishimiz shart.

Xo'sh, nima qilish kerak? Hozir oliy ta'lim jarayoniga kredit-modul tizimi joriy etilishi natijasida talabalar bor e'tiborini aynan kredit to'planadigan fanlarga qaratmoqda. Bu holat ma'naviyat-ma'rifiy tarbiya jarayonini yangi shaklda, kredit-modul tizimiga uyg'unlashtirilgan holda talabalarning



ulkn hissa qo'shgan adiblarimiz ma'naviy merosini o'rganishga qaratilgan islohotlar doirasida "Adabiyat-ma'rifiy haftaliklar" loyihasi yo'lga qo'yilgan. Bunda poytaxtimizdagi oliy ta'lim muassasalari Adilbar xiyobonidagi atqoliq ijodkorlar, hududlardagi oliy ta'lim muassasalari esa joylashgan hududidagi istirohat bog'lari va xiyobonlarga biriktirilib, adabiyat-ma'rifiy loyihalarni amalga oshirish rejasini ishlab chiqildi. Loyiha doirasida tadbirlar tashkil etilib, 41 mingdan ziyod talaba, professional ta'lim

muassasalarining 5,5 ming o'quvchisi va 700 o'qituvchi qamrab olindi.

"Milliy qadriyatlar sayli" tadbirlari doirasida milliy hunarmandlik, robototexnika, kitob va galereya ko'rgazmalari, milliy liboslar, talabalarning ijodiy ishlari namoyishi, adiblar hayoti va ijodiga bog'ishlangan sahna ko'rinishlari, munozara, musho'ra (she'rxonlik), milliy o'yinlar (arqon tortish, besh Tosh, varrak sayli), kurash, og'ir atletika, tosh ko'tarish, mini futbol kabi sport tadbirlari, shuningdek, besh

Bugunning gapi

XARAJATINI QOPLAMAYOTGAN IJTIMOY DORIXONALAR

TEZ ORADA YOPILIB KETISHI MUMKINMI?

Nabirramning tobi qochib, shifoxonaga tushib qoldi. O'n kundan ortiq shifoxona va dorixona o'rtasida bo'zchining mokisiday qatnadim. Kasallikning xavfli davri ortda qolgach, muolajani uyda davom ettirishimni tayinlab, nabirama javob berishdi. Ketish oldidan qo'limga dorilar ro'yxati yozilgan qog'ozni tutqazib, ularni olish shartligini aytishdi. Qog'ozdagi uzundan uzoq ro'yxatni ko'rib, ko'zim jimirlab ketdi. Dorilarni topish uchun men bormagan dorixona qolmadi hisob. Birida retseptda ko'rsatilgan dori yo'q bo'lsa, boshqasida narx-navo hamyonbop emas...

qishloqda savdo-sotiq qilish, daromad salmog'ini o'ylab ko'pchilik ro'yxushlik bermagan. "Yoyilma" qishloq oilaviy shifoxonasi huzurida ijtimoiy dorixona tashkil etilgani har jihatdan qulay bo'ldi. Dori va tibbiyot buyumlari maqbul narxlarda sotilyapti. Ilgarigi ovoragarchilik va

— Shu mahallada yashaymiz, — deydi o'zini Muhammadiddiq Barakayev deb tanishtirgan subhbatdoshimiz. — Oilaviy poliklinikalarda ijtimoiy dorixona faoliyat yuritayotgani o'ziga xos qulayliklar yaratdi. O'zaro raqobat va tanlash imkoniyatini beryapti. Dori-darmonni



ortiqcha sarf-xarajat barham topdi. Uyrat qishlog'ida 44-oilaviy poliklinika hududida bir-yilga yaqin uchta dorixona bor. Ularning biri 156-ijtimoiy dorixona shoxobchasi. To'g'risi, ijtimoiy dorixona boshqa dorixonalardan qiyoslaganda birmuncha abgor ko'rinadi. Ammo narx-navosi nisbatan arzon. Masalan, oddiy shprits 360 so'mdan 500 so'mgacha, natriy xlor 8000 so'm atrofida. Bir dona sistema 650 so'm. Unga yaqin boshqa xususiy dorixonalarda bu qiymat birmuncha yuqori: bir dona shprits narxi 500-1000 so'mgacha, natriy xlor 12 ming so'm, sistema ming so'mdan ortiq.

retsept bo'yicha sotish tartibi yo'lga qo'yilgan. Avvallari bunday imkoniyat yo'q edi.

— Oilaviy poliklinikadagi to'qson metr kvadrat joyda ijtimoiy dorixona shoxobchasi ochganmiz, — deydi shoxobcha mudiri Farhod Rahmonov. — Davlat-xususiy sheriklik asosida tuzilgan shartnoma shartlarida shoxobchamiz ijara puli, elektr energiyasi, suv kabi kommunal to'lovlardan ozod qilingan edi. Yangi shartnomada barcha kommunal to'lovni shoxobcha hisobidan to'lash tartibi joriy etilayotgani ijtimoiy dorixonalardagi narxning oshib ketishiga sabab bo'lmoqda.

ta'minlangan. Litsenziyaga ega mutaxassislar faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Bir qaraganda hamma ish risoladagidek. Biroq ijtimoiy dorixonalarning kundalik faoliyatida qator muammo va qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

— Birinchidan, ixtisoslashtirilgan dorixonalarning daromadi majburiy to'lovlari sirasiga kirgan ish haqi, soliqlik va terminal, abonent to'lovi bilan bog'liq xarajati qoplamayapti, — deydi "Farg'ona dori-darmon" aksiyadorlik jamiyati raisi Muhammadamin Tursonov. — Ikkinchidan, ijtimoiy kasalliklarni davolashda qo'llanadigan dori-darmon va tibbiyot buyumlariga xususiy korxonalar singari ortiqcha ustama narx qo'yilmaydi. Jamiyat ayatlanma mablag'ini to'ldirish uchun bankdan olinadigan kredit foizida imtiyoz joriy etilmagan. Shu yildan boshlab davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etilgan ijtimoiy dorixonalarning bilan uch yillik shartnoma shartlarida ko'rsatilgan, ijara va kommunal to'lovlarga oid imtiyozlar tugatildi. Davolash-profilaktika muassasalarida ochilgan ijtimoiy dorixona shoxobchalaridan foydalanilgan har bir kvadrat metr joy, elektr energiyasi, suv bilan bog'liq barcha kommunal to'lovlarni muvofiq to'lash talab etilmoqda. Bu ko'plab ijtimoiy dorixonalarning faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatayapti. Shu sababli zarar bilan ishlayotgan 100 dan ortiq ijtimoiy dorixona faoliyatini to'xtatishga majbur. Mazkur masalalar yechimini yuzasidan viloyat hokimligi, sog'liqni saqlash boshqarmasi bilan masalani muqobil yechimini topishda amaliy yordam berishlarini so'rab murojaat qilganmiz.

Mazkur sabablar narx-navoga salbiy ta'sir ko'rsatishi ayon. Ijtimoiy dorixonalarning xarajati qoplamayotgani sababi esa ularning aksariyati aholisi kam, chekka hududlarda joylashgani uchun kunlik tushum pastligida. Yangi tartib bo'yicha bu dorixonalarga ijara va kommunal to'lovlarni majburiyatning yuklanishi muammolar ko'laminii kengaytirishi tabiiy. Bundan tashqari, shifoxona va poliklinikaga kelgan bemorlarga dori-darmonni ijtimoiy dorixonalardan xarid qilmaslik tavsiya etilib, boshqa dorixonalarga yo'naltirish holatlarini tez-tez uchrab turibdi. Ba'zi shifokorlar turli firma va kompaniya vakillari bilan kelishgan holda bemorlarni muayyan dorixonalarga yuborishga odatlangan. Bu esa ijtimoiy dorixonalarning kunlik tushumiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Qolaversa, aholi ijtimoiy dorixonalarning faoliyatini bog'liq imtiyoz va imkoniyatlardan bebaxar ekani ham ish sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatib kelayotir.

Jadidlar ruhi

“KO'NGLIMDAGI IZTIROBLAR ARIMOQDA”

UCH MA'RIFATPARVARNING ZURRIYODI SHUKRONASI



O'tgan yil 11-12-dekabr kunlari Toshkentda “Jadidlar: milliy o'zlik, istiqloq va davlatchilik g'oyalari” mavzusida o'tkazilgan xalqaro ilmiy konferensiya qizg'in muhokamalarga boy bo'lib, unda Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Ozarbayjon, Turkiya, Rossiya, Vengriya, AQSH, Germaniya, Niderlandiya, Shvetsiya, Yaponiya va boshqa mamlakatlardan taniqli olim va ekspertlar ishtirok etgandi.



Konferensiyada ma'ruza qilganlar orasida Buxoro davlat universiteti professori Sulaymon Inoyatovning hayajonli nutqi diqqatimizni tortgandi:

— Bugun meni xursand qiladigan bir jihat bor: kamina uch buyuk siymo — Fayzulla Xo'jayev, Usmon Xo'ja va Otulla Xo'jayevga taalluqli oilada dunyoga kelganman. Uzoq yillar “xalq dushmanining avlodi” degan tamg'a ostida yurganlardan biriman. Ko'nglimga og'riq beradigan yana bir jihat bor: har safar Toshkentga kelganimda gul ko'tarib bobom Otulla Xo'jayev qabrini ziyorat qilish istagida yuraman, biroq uning qabri qayerda, qachon vafo etgan, qayerda otilganini hozirgacha aniqlaganim yo'q.

Nihoyat Sulaymon Inoyatov Fayzulla Xo'jayev otilgan joyini borib ko'rishga muvaffaq bo'ldi. Moskvadagi Kommunarka qabristonida olti ming olti yuz kishining ism-familiyasi maxsus taxtalarga yozib qo'yilgani haqida xabar topgan olim qushdek uchib boradi. Qatag'on qilinganlar ro'yxatida Fayzulla Xo'jayev va Akmal Ikromov borligini ko'rgach, ko'ngli mahzun tordidi...

Shu yil 30-mayda Prezidentimizning “Jadidlar merosi davlat muzeyini tashkil etish to'g'risida”gi qarori e'lon qilingach, vaqt allamahol bo'lganiga qaramay, Buxoroga sim qoqdik. Xushxabarni eshitgan Sulaymon Inoyatov beixtiyor yig'lab yubordi va bunday dedi:

— Bilasizmi, qizim, bu xabar meni yetti osmon qadar ruhlantirdi. Shunday kunlar kelishini bilardim. Jadid bobolarimiz haqidagi ma'lumotlarni bir necha yillardan beri jamlab, kitob nashr qilish istagim bor edi. Ayniqsa,

bobom Otulla Xo'jayevning jadidlar g'oyasini amalga oshirishdagi xizmati katta bo'lgan.

Otulla Xo'jayev Buxoro shahri markazidagi Hovliyoyunda tug'ilib vovaga yetgan. Akasi Usmon Xo'ja bilan ko'plab kitoblarni birgalikda o'qir, qahramonlar kabi yangicha hayot qurish, kurashishni orzu qilardi. Aka-uka madrasani tugatgach, Turkiyaga borib, Istanbulda Abduraf Fitrat bilan uchrashadi hamda oliy ta'lim muassasasida birga ta'lim oladi. Ular o'qish bilan chegaralanib qolmay, Turkistondan, Buxorodan o'qish istagida kelgan yoshlarni tayyorlov kurslarida o'qitgan, kerakli sharoit yaratib bergan.

Turkiyadan qaytgach, aka-uka Buxoroda ham yangi usuldagi maktab ochish taklifini bildiradi. O'zlarini istiqomat qilgan hovlida birinchi jadid maktabini ochadi. Atrofdagi guzarlardan yangi hayot va ma'rifat istagidagi yigitlar kela boshlaydi. Tez orada aka-uka qurgan maktab Buxoroda mashhur bo'lib ketadi.

Bundan xabar topgan amir tezlik bilan mazkur ta'lim maskanini yopadi.

— Bobom va amakim o'z maqsadi yo'lida har qanday to'siq va mashaqqatdan qo'rqmaydigan jasoratli insonlar bo'lgan, — deydi Sulaymon Inoyatov. — Uylaridagi maktab yopilgach, atrofdagi boshqa mahalla va qishloqlarda ham jadid maktablari ochishadi. Ilm o'rganib, o'z haq-huquqini, qadrini anglay boshlaganlar ushbu maktablarni ovoza qiladi. Ayniqsa, G'ijduvon, Shahrisabz va Nurotada ochilgan yangi usul maktablari el orasida shov-shuv bo'ladi. Axir ilm nuri kirgan qalb uyg'ona boshlaydi-da. O'zining o'tmishi, buguni va ertasi uchun qayg'uradi. Avlodlari munosib izdosh bo'lib kamolga yetishini xohlaydi.

Chindan ham yangi usul maktablarida ta'lim olganlarning dunyoqarashi, fikrlash tarzi o'zgaradi. Endi ular ma'naviyatni r'ifiy, ijtimoiy-siyosiy mavzularda muhokama va munozaralar yuritib boshlaydi. Bu esa, albatta, sho'ro hukumati odamlariga yoqmaydi.

— Bobom va katta bobom yashagan hovli bugun Jadidlar merosi muzeyiga aylantirilayotganidan nihoyatda xursandman, — deydi Sulaymon Inoyatov. — Bu hovlining eski suratlarini men uchun juda qadrli. Ularga termilganim sayin ko'z oldimda ma'rifatparvar bobolarim siymosi gavdalanaveradi. Ayniqsa, bu qutlug' hovlining katta egasi — bobom Po'latxo'ja yirik savdogar bo'lgan. Farzandlarini o'qimishli, bilimli qilishga juda katta e'tibor qaratgan. U Buxoro amiri Abdulahadxonning iltimosi bilan Mazaffariya maktabiga homiylik qilgan.

Subhatdoshimizning aytishicha, o'sha davrda Otulla Xo'jayevga ko'p aziyat yetkazilgan. Ikki marta zindonband qilingan. Hibsga olinishidan avval Otulla Xo'jayev “Yosh buxoroliklar” nomidan III internatsional kongressda qatnashish uchun Moskvaga yuboriladi. Qat'iy fikr-mulohazali, takliflari yo'jali yigini ishtirokchilar hurmat qiladi. Otulla Xo'jayev Lenin bilan uchrashib, turkistonlik yoshlarning fikr-mulohazalarini aytish uchun o'zida jur'at topadi.

— 1920-yil avgustida bobom Buxoroga qaytib keladi, — deydi Sulaymon Inoyatov. — Buxoro Xalq sho'rolar jumburiyati tashkil etilganidan keyin Otulla Xo'jayev avval ichki



ishlar vaziri, keyin Fayzulla Xo'jayevning yordamchisi sifatida jumburiyat ravnaqi yo'lida juda katta xizmat qiladi. Hatto Fayzulla Xo'jayev safarga ketgan chog'lari davlatni boshqarishda bevosita ishtirok etadi.

Sadoqatli mehnati bois, davlat ishonchiga kira boshlagan Otulla Xo'jayev milliy ozodlik harakati avj olgan kezlari Sharqiy Buxoroga yuboriladi. U o'sha hududlarga borib, milliy ozodlik harakati vakillari bilan alohida uchrashadi va ularni davlatga sadoqat bilan xizmat qilishga ko'ndiradi. Afsuski, bu kelishuvlarning ko'pi qog'ozda qolib ketadi.

O'sha yillari ozodlik harakatini sezib qolgan sho'rolar Buxoroda o'zgarish va yangilanish qilmoqchi bo'lgan barcha ziyolilarni hukumat ishidan chetlashtira boshlaydi, — deydi Sulaymon ota. — Ular o'miga savodsiz, siyosiy masalani tushunmaydigan, ma'lumoti va savodi yo'q kishilar qo'yiladi. Shu maqsad yo'lida hukumat tayinlagan maxsus guruh Buxoroga yuboriladi. Mazkur guruh 23-iyunda Abduraf Fitrat, Otulla Xo'jayev, Mo'yinjon Aminov va Sattor Xo'jani Buxorodan badarg'a qiladi.

O'zbekiston SSR tashkil etilgach, Otulla Xo'jayev nogironlar uyushmasida boshliq

o'rinbosari bo'lib ish boshlaydi. Shu bilan birga, boshqa xo'jalik ishlarini ham zimmasiga oladi. 1930-yili Kislovodskka yuboriladi. U O'zbekiston sanatoriysi boshqaruvi raisi bo'lib faoliyat yuritadi. Oradan bir yil o'tgach, Buxoroga qaytib kelib, birinchi gastronom qurishga bel bog'laydi. Gastronom direktori sifatida ish boshlagan payti esa Buxoroda vaziyat yana keskinlashadi. Fayzulla Xo'jayevni aylash uchun qator buxoroliklar hibsga olinadi. Ular qatorida Otulla Xo'jayev ham bor edi. O'n oyga yaqin davom etgan tergovda unga juda ko'p saxta ayblar qo'yiladi.

Arxiv ma'lumotlarida qayd etilishicha, Otulla Xo'jayev va yana 17 buxorolik faol o'limga hukm etiladi. 1937-yil 25-oktabrda Bo'zsuvi kanali atrofiga otiladi. Oradan ancha muddat o'tib, 1965-yil 2-dekabrda oqlanadi.

— Uzoq yillar davomida mana shu ajdodlarim shajarasini yaratishga muvaffaq bo'ldim, — deydi Sulaymon Inoyatov. — Biroq to'plab yurgan ma'lumot va maqolalarimni sir saqladim. Prezidentimizning 2018-yil 16-fevralda Buxoroga tashrifida aytgan mana bu gapini eshitib, qayta tug'ilgandek bo'ldim: “Biz Fayzulla Xo'jayev va uning safdoshlari

oldida qarzdormiz!”. Qulog'imga ishonmadim, bobolarimning sarsori ruhini quchib, alamin bo'g'zimdanda otilib yig'ladim: “Men sizlar bilan faxrlanaman, jadid bobolarim! Sizlar dushman emassiz! Sizlar millat birligi, ma'rifati, ma'naviyati uchun kurashgan xalq qahramonisiz!”.

Sulaymon Inoyatov va tarix fanlari doktori Qahramon Rajabov hammuallifligida tayyorlangan ma'lumot va maqolalar to'plamini ko'zdan kechirar ekanmiz, sulolaning 300 ga yaqin vakili nomi mujassam jamlanmada uch buyuk siymo — Fayzulla Xo'jayev, Usmon Xo'ja, Otulla Xo'jayev hayoti va faoliyatiga oid xorij matbuotida nashr etilgan ko'plab maqolalar ham borligiga guvoh bo'ldik.

— Gul ko'tarib, bobolarim qabrini izlab yurgan chog'lrimdagi iztiroblar arimoqda, — dedi xayrlashuv chog'ida Sulaymon Inoyatov. — Muzey tashkil etilayotgan bu tabarruk hovliga har borganimda yuragimdagi armonlarim, iztiroblarim, sog'inchlarim haqqi, yanada ko'proq izlanishimiz, mehnat qilishimiz, jadid bobolarimiz g'oyalarni qayta-qayta yodga olib qadam tashlashimiz zarurligini his qilaman.

Bu e'tirof ayni maqolamizga mos go'zal xulosa bo'ldi. Davlatimiz rahbari ta'kidlagandek, “Buyuk ma'rifatparvar bobolarimiz tomonidan olg'a surilgan g'oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-ma'rifiy va huquqiy-axloqiy qarashlar, turli millat va elatlar o'rtasida bog'rikenglik va hamjihatlik tamoyillarini qaror toptirish bilan birga, milliy manfaatlarni himoya qilishga qaratilgan intilishlar hozirgi murakkab va tahlikali zamonda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat namunasidir. Ularning hayoti va jasorati bugungi tinch va osoyishta kunlarga osonlik bilan erishilganini eslatib, milliy istiqloqimizni, jonajon Vatanimizni ko'z qorachig'iday asrashga doimo da'vat etib turadi”.

Muxtasar TOJIMAMATOVA, “Yangi O'zbekiston” muxbiri



“Parij — 2024”

YENGILIDA HAM, OG'IRIDA HAM BIR XIL NATIJA

badiiy gimnastika to'garagi faoliyati ham to'xtadi. Endigina bu sport turiga moslashgan qizning mustaqil shug'ullanishdan o'zga chorasi qolmadi.

Bir o'z ulg'aygach, sport maktabidagi yangil atletika to'garagiga a'zo bo'ldi. Sanjar Rahmonov murabbiyligida yadro va bosqon, disk uloqtirish sirlarini mukammal o'rganib bordi. Qiziqishi yuqoriligi bois, yangil atletika mashg'ulotlariga ham tez moslashdi. Ayniqsa, uzoq masofaga bosqon yoki disk uloqtirish ko'nikmasini o'z vaqtida o'zlashtirib, tengdoshlariga nisbatan yaxshi natijalarga erisha boshladi. Dastlab tuman va shahar birinchiiliklarida ishtirok etib, raqiblarini dog'da qoldirdi. Shundan so'ng murabbiyi uni katta musobaqalar sari yetakladi. Sportchi qiz mamlakat birinchiiliklarida qatnashib, tajribasini oshirib bordi.

— Ilk bor mamlakat musobaqasida qatnashganimda endigina 7-sinfga o'tgandim, — deydi Regina Adashboyeva. — O'shanda yadro uloqtirishda kuchimni sinab ko'rish uchun imkoniyat berilgan. Rostini aytсам, ancha hadiksiraganman. Bundan tashqari, murabbiylarim ishonchini oqolmay qolishdan cho'chiganman. Shunday bo'lsa-da, kattalarning daldasi bilan hech ikkilanishsiz maydonga tushdim. Dastlabki urinishdayoq

ko'rsatkichim yomon bo'lmagan. Ammo o'rin egallayman deb o'ylamaganman. Shu sababli atletlarni taqdirlash paytida e'tibor qilmay, tomoshabinlar orasida o'tirib, boshqalarni olqishlab turgandim. Bir mahal yadro uloqtiruvchilarga nabat berildi. Birinchi o'rin sohibi sifatida mening ism-familiyamni e'lon qilib qolishsa bo'ladimi! Yon-atrofga qarab, bir xil ism-familiyalik boshqa tengdoshim bo'lsa kerak, deya jim o'tirganman. Murabbiyim yonimga kelib, qo'lmdan yetaklab, olib borganida o'zimga ishonmagandim. Shohsupaga ko'tarilganimda olqishlab, bo'ynimga oltin medal taqishdi. Ko'zimdada esa quvonch yoshi. Shu rag'bat ortidan faqat g'oliblikka erishadigan bo'ldim.

Regina shu bilan to'xtab qolmadi. Aksincha, u ishtirok etgan har bir musobaqada boshqalar 1-o'rinni egallay olmaydigan bo'ldi. O'sha yillari poytaxtimizda yangil atletika bo'yicha Milliy olimpiya qo'mitasi sovrini uchun o'tkazilgan O'zbekiston chempionatida Regina ham ro'yxatdan o'tadi.

Musobaqaning birinchi kuni 17 yoshgacha bo'lgan sportchi qizlar o'rtasida bosqon (3 kg) uloqtirish bo'yicha bahslarda kutilmaganda u 62,64 metr natija qayd etadi. Ushbu natijasi bilan O'zbekistonning yangi rekordini o'mtadi. Qiziqarli jihati, bungacha rekord 2014-yili

o'rnatilgan bo'lib, o'shanda Gulruxsora Hoshimova bosqonni 53,54 metr uzoqqa uloqtirgandi. Demak, Regina Adashboyeva bu boradagi natijani 9 metrga yaxshilay oldi.

Yangil atletika bilan shug'ullanish davomida Regina O'zbekiston chempionatida o'ttiz martadan ortiq g'olib bo'ldi. Osiyo musobaqalarida sakkiz karra sovrinli o'rinlarni egalladi.

Sportchi qiz sakkiz yilga yaqin bu sportda yaxshigina natijalarni qo'lga kiritdi. Shu vaqt orolida unga og'ir atletika bilan shug'ullanish borasida mutaxassislar bir necha bor taklif berdi. Bir oz qiziqishi borligi sabab oxiri og'ir atletika bilan shug'ullanishni maqsad qildi.

— 2021-yildan og'ir atletikaga o'tdim, — deydi Regina. — Ko'pchilik bu osomonasligimni aytib, eplab ketolmasligimni ta'kidladi. Biroq ortga qaytmadim. Shu yo'lni tanladimmi, endi uddalashim kerakligini his qilgan holda olg'a intildim. Kishida qiziqish bo'lsa, qolgan hech gap emas. Ustozim Akrom Zayniddinov ko'magida asta-sekin tosh ko'tarishni o'rganib bordim. Gohida muammolarga duch kelsamda, baribir tashlab ketmaslik uchun katta kuch bilan mashg'ulotlarga berildim. Intilganga tole yor, deb bejiz aytishmagan. Barcha to'siqlardan o'tib, bu sport turini ham mukammal egallashga intildim. Og'ir atletikada, asosan, siltab va dast ko'tarish yo'nalishlari mavjud. Buning uchun har bir shug'ullanuvchidan katta mahorat va o'ziga xos kuch talab etiladi. Boshida burchalik og'ir toshni ko'tarishga o'zimda ham ishonch bo'lmagan. Lekin astoydil intilish baribir

o'z samarasini ko'rsatarkan. Bugun hech ikkilanishsiz belgilangan og'irlikdagi toshni ko'tara olmayman.

Dastlab yangil atletika yo'laklarida maqtovg'a arziqli natijalari bilan yaxshi tanilgan polvon qiz og'ir atletikaga o'tgach, g'alabali yurishlarini kanda qilmadi. Shug'ullanishni boshlaganiga olti oy o'tmasdan og'ir atletika bo'yicha O'zbekiston chempionatida g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Hozirga qadar Regina og'ir atletika bo'yicha o'n marta O'zbekiston birinchiilikdagi oltin medalga sazovor bo'ldi. 2020-yildan O'zbekiston terma jamoasi a'zosi. Xalqaro musobaqalarda -81 va -87 kilogramm vazn toifalarida yurtimiz sharafini himoya qilib kelmoqda.

Shu vaqtga qadar Osiyo chempionatlarida 4 ta kumush va 2 ta bronza, “Konya — 2021” Islom birlamligi o'yinlarida bronza va Belarusda o'tgan II MDH o'yinlarida kumush medal bilan taqdirlandi.

Xalqaro og'ir atletika federatsiyasi (IWF) e'lon qilgan Olimpiada reytingi yakuniga ko'ra, Regina Adashboyeva -81 kilogramm vazn toifasida “Parij — 2024” yozgi olimpiya o'yinlari yo'llanmasini qo'lga kiritdi. Ayni paytda u og'ir atletika bo'yicha mamlakatimiz terma jamoasi safida Parijda o'tadigan nufuzli musobaqaga hozirlik ko'rmoqda.

— Olimpiada o'yinlarida ishtirok etish har bir sportchining yuksak orzusi, — deydi Regina. — Men ham oldimga qo'yan maqsadimga erishish arafasidaman. Eng asosiysi, nafaqat ishtirok etaman, balki sovrinli o'rinlardan birini egallab, yurtimizga medal bilan qaytaman. Buning uchun imkoniyatlar yetarli.

Uning shijoati g'alabalar tomon yetaklashi shubhasiz. Shunday ekan, Parijda boshqa vakillarimiz qatori Reginaning samarali mehnati evaziga yurtimiz madhiyasi baralla yangrashiga ishonamiz.

Akbar RAHMONOV, “Yangi O'zbekiston” muxbiri

Bo'stonliq tumanida dunyoga kelgan Regina olti yoshidan badiiy gimnastika bilan shug'ullana boshlagan. Murabbiylari undagi ishtiyoqni ko'rib hayratlangan. Ustozlarining topshirig'ini chaqqon harakat bilan mohirona bajarishi qizning kelgusida yetuk sportchi bo'lishidan darak berardi. Nafis sport turi usullarini o'zlashtirib olish uchun ancha vaqt talab etiladi. Lekin Reginaa ikki-uch ko'rsatma yetarli edi. O'sha palladayoq murabbiy harakatlarini takrorlab, o'zlashtirib olar, qisqa muddatda keyingi mashg'ulotga o'tishga hozirlik ko'rayotgan bo'lardi.

Bir yil to'garakka qatnab, yaxshi tajriba to'pladi. Ayrim musobaqalarda ishtirok etib, faxrli o'rinlarni egalladi. Murabbiylari qizdagi

iqtdor kelgusida natija berishini hech bir taxminsiz aytardi. Qizaloq 2-sinfga o'tganida murabbiyi boshqa joyga ko'chib ketishi bilan